

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

SIROJIDDINOVA SHAHRIBONU SIROJIDDINOVNA

**YO‘QOTILGAN JANNAT MOTIVI VA UNING POETIKASI
(Jon Miltonning “Yo‘qotilgan jannat”, Abdulla Oripovning “Odam va
shayton” va Nazar Eshonqulning “Taqiq mevasi” asarlari misolida)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)
по филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of Science (DSc)
on philological sciences**

Sirojiddinova Shahribonu Sirojiddinovna

“Yo‘qotilgan jannat” motivi va uning poetikasi (Jon Miltonning “Yo‘qotilgan jannat”, Abdulla Oripovning “Odam va Shayton”, Nazar Eshonqulning “Taqiq mevasi” asarlari misolida)..... 3

Сирожиддинова Шахрибону Сирожиддиновна

Мотив «Потерянного рая» и его поэтика (на примере произведений Джона Мильтона «Потерянный рай», Абдуллы Орипова «Человек и Шайтан» и Назара Эшонкула «Запретный плод»)..... 41

Sirojiddinova Shahribonu Sirojiddinovna

The Motif of “Paradise Lost” and Its Poetics (Based on John Milton’s Paradise Lost, Abdulla Oripov’s Man and the Devil, and Nazar Eshonqul’s The Fruit of Forbidden) 83

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 88

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

SIROJIDDINOVA SHAHRIBONU SIROJIDDINOVNA

**YO‘QOTILGAN JANNAT MOTIVI VA UNING POETIKASI
(Jon Miltonning “Yo‘qotilgan jannat”, Abdulla Oripovning “Odam va
shayton” va Nazar Eshonqulning “Taqiq mevasi” asarlari misolida)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.DSc/Fil1025 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdchi.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida www.ziyonet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Rahimov G'anisher Xudoyqulovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Musurmonov Erkin Rabbimovich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Pardayeva Zulfiya Jo'rayevna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Davronova Mahfuza Isroilovna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 raqamli Ilmiy kengashning "16" may 2026-yil soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand sh., Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37; faks: (99866) 210-00-18; e-mail: info@samdchi.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin 63018-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand shahri, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "30" aprel kuni tarqatildi.
(2026-yil "30" aprel dagi 29 -raqamli reyestr bayonnomasi)



N.Z. Nasrullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'.O'. Qo'ldoshov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ketibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A. Kiselyov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotida insoniyatning yaralishi, u bilan bog‘liq diniy, ijtimoiy-sotsial, tarixiy, adabiy yondashuvlar kabi bir qator g‘oyaviy motivlar eng qiziqarli muammolardan biri sifatida e‘tirof etiladi. Insoniyatning yaralishi bilan bog‘liq “Yo‘qotilgan jannat” konsepti esa adabiyotning asosiy o‘q ildiziga aylanib ulgurgan. Jannatni tark etish motiviga asoslangan asarlar esa G‘arb va Sharq adabiyotida birlamchi ahamiyat kasb etib, uning ta‘siri natijasida yuzga yaqin ijod namunasi sifatida taqdim etildi. Tayyor va sayyor syujetlarga ega bo‘lgan bu kabi asarlarda ijodkor dunyoqarashi, bu motivni ifodalashdagi o‘ziga xos uslubi va asosiy g‘oyani berishda yozuvchi nuqtayi nazari va uning poetik talqini adib dunyoqarashini to‘liq anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo adabiyotida “Yo‘qotilgan jannat” motivi eng qadimgi, eng global va eng chuqur falsafiy mazmun kasb etgan mavzularidan biri bo‘lib, u nafaqat diniy-falsafiy kontekstda, balki insoniyat tarixidagi eng muhim savollar – yaxshilik va yomonlik, iroda va taqdir, gunoh va najot, insof va nafs kabi mavzularga bevosita taalluqlidir. Unga asoslangan asarlar har qanday zamonda insoniyatning ma‘naviy va ruhiy holatini ifodalashda muhim mezon bo‘lib xizmat qilganligi bois bu kabi asarlarning qiyosiy-tipologik tadqiqi hamda yozuvchilarning poetik talqinlarining yondosh o‘rganilishi Sharq va G‘arb dunyoqarashidagi ilohiy iroda, inson iroda kuchi va iymon sinovlari kabi muhim tushunchalarni chuqur falsafiy hamda badiiy tahlil qilishini taqozo etadi. Bu kabi muammo diniy, falsafiy va badiiy jihatdan nihoyatda boy va dolzarb bo‘lganligi sabab, u insoniyat ongining abadiy savollarini o‘rganish, adabiy tafakkurdagi o‘zaro ta‘sir va uyg‘unlikni aniqlash, bugungi zamonaviy insonning ruhiy kechinmalarini chuqur anglash uchun ham xizmat qiladi.

Mamlakatimizda yoshlarning ongi va ruhiyatini yuksaltirish borasida olib borilayotgan islohotlarni amalga oshirilishida axloqiy sinov vositasi, ruhiy oyna va o‘zligini anglash maydoni bo‘lib xizmat qilayotgan J.Miltonning “Yo‘qotilgan jannat”, Abdulla Oripovning “Odam va shayton” qissasi hamda Nazar Eshonqulning “Taqiq mevasi” singari asarlari inson ma‘naviy olamini boyitishda ma‘naviy asos bo‘lib xizmat qiladi. Zero, “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotni xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilish, ko‘p qirrali bu mavzuni bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, kelgusi vazifalarimizni belgilab olishda, o‘ylaymanki, katta ahamiyatga ega”¹. G‘arb falsafasi hamda Sharq tafakkurini o‘zida qamrab olgan va ilmiy-nazariy asoslarga ega bo‘lgan bu kabi asarlar o‘zbek adabiyotshunosligida fundamental tarzda qiyosiy tadqiq etilmagan. Shuningdek, J.Miltonning “Yo‘qotilgan jannat” asari haqida jahon adabiyotshunosligida teologik va falsafiy jihatdan ba‘zi maqola va tadqiqotlar yaratilgan bo‘lsa-da, uni Abdulla Oripovning “Odam va shayton”

¹ Mirziyoyev Sh. Adabiyot, san‘at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi. O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari mavzusidagi xalqaro konferensiya to‘plamidan. – Toshkent, 2018. 7-avgust.

qissasi, Nazar Eshonqulning “Taqiq mevasi” romani bilan janr, obraz, mavzu, g‘oya, kompozitsiya, uslub jihatidan fundamental tarzda maxsus o‘rganilmagan. Zamonaviy o‘zbek adabiyotida, xususan motiv, poetik nuqtayi nazardan, syujet ifodalanishining nazariy masalalarini tadqiq qilish adabiyotshunoslikning dolzarb masalalaridandir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16- fevraldagi 124-F-son “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiyani o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoyishi, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022– 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789- son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi². Dunyo adabiyotshunosligida “Yo‘qotilgan jannat” motivining poetikasi barcha davrlarda olimlarning diqqat markazida bo‘lgan. Xususan, Katolik universiteti (Amerika), Kembrij universiteti (Angliya), Oksford universiteti (Angliya), Pensilvaniya universiteti (Filodelfiya), Illinoys universiteti (Chikago), Harvard universiteti (Amerika), Kornell universiteti (Nyu-York), Okland universiteti (Yangi Zelandiya), Arizona universiteti (Arizona), Al-Quddus universiteti (Isroil), Ogayo universiteti (Amerika), Sirakuza universiteti (Amerika), Sankt-Peterburg universiteti, Moskva davlat universiteti, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetlarida maxsus tadqiqotlar olib borilgan.

² Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha quyidagi: www.academia.edu, www.researchgate.net, www.google.scholar.com, cheloveknauka.com, dslib.net, www.lang.ox.ac.uk, www.cam.ac.uk, www.nyu.edu, www.ling.upenn.edu, www.linguistics.ucla.edu, www.newcastle.edu.au, www.navoiy-uni.uz, www.uni.leipzig.de, www.helsinki.fi, www.english.bnu.edu.cn, www.linguanet.ru, www.sgu.ru, www.pgu.ru, www.ssau.ru, www.vsu.ru, www.pgu.ru, www.tsutmb.ru, www.bsu.edu.az, www.nuu.uz, www.tsuull.uz, www.tuit.uz, www.buxdu.uz, www.adu.uz, www.fdu.uz. va boshqa manbalar asosida amalga oshirildi.

Dunyo adabiyotshunosligida teologik va diniy-falsafiy yondashuvlar masalasini adabiyotda o'ziga xos hodisa sifatida, xususan, gunoh va najot konsepsiyasi, erk va ilohiy iroda o'rtasidagi dialektika, "Bibliya"dagi yaratilish hikoyasining san'atga aylanishi, teodisiya (Xudoning adolatini oqlash) masalasini Katolik universiteti (Amerika), Kembrij universiteti (Angliya), Oksford universiteti (Angliya), Pensilvaniya universiteti (Filodelfiya)da, dostonning kompozitsion xususiyatlarini, syujetda epik va dramatik xususiyatlarning uyg'unligini, til, metafora, stilistik xususiyatlarini Illinois universiteti (Chikago), Harvard universiteti (Amerika), Kornell universiteti (Nyu-York), Okland universiteti (Yangi Zelandiya), Arizona universiteti (Arizona)da, dostonga psixologik va ekzistensial yondashuvlarni esa Ogayo universiteti (Amerika), Sirakoza universiteti (Amerika)da, nasrdagi mifologiyani Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti (O'zbekiston)da tadqiq etilgan.

Jahon adabiyotshunosligida "Yo'qotilgan jannat" motivi va uning poetikasi J.Milton, A.Oripov va N.Eshonqul asarlari misolida, jumladan quyidagi ustuvor yo'nalishlarda: "Yo'qotilgan jannat" motivi genizisini tadqiq etish, asarlarning janr xususiyatlarini kompozitsion jihatdan o'rganish, bu asarlarning g'oyaviy-badiiy ahamiyatini aniqlash, ularni o'zaro qiyoslash bilan bog'liq yo'nalishlarni tadqiqot etishni nazarda tutmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida "Yo'qotilgan jannat" motiviga oid bir qator tadqiqotlar yaratilgan³. Ayniqsa, J.Miltonning shu nom ostidagi dostoni ko'plab munozaralarga sabab bo'lgan. Anderson, va K.Jarold, Jamal Subhi Ismail Nafi', Jimelli Martin, Katherine, Davis, David Oliver, Levis va Eliot, K.S. Levis va Vilyam Empson, Banisalamah, M.F.Ahmed, Barker va E.Artur, Dayches A.Davidlarning monografik hamda ilmiy maqola asosidagi izlanishlari muammoning ayrim tomonlarini yoritishga xizmat qilishi mumkin⁴. Ushbu tadqiqotchi olimlarning ilmiy-nazariy tadqiqotlarida

³Lewalski, Barbara Kiefer. "The genres of Paradise Lost." The Cambridge Companion to Milton. Ed. Dennis Danielson. 2 nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press,1999. – P.113-29; Loewenstein, David, and Paul Stevens, eds. Early Modern Nationalism and Milton's England. – Toronto: University of Toronto Press, 2008. – P.470; Müller, Wolfgang G. "Style" Encyclopedia of Rhetoric. Ed. Thomas O. Sloane. Oxford: – Oxford University Press, 2001. – P. 745-57; Reid, David. The Humanism of Milton's Paradise Lost. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 1993. – P.186; Shore, Daniel. Milton and the Art of Rhetoric. – Cambridge: Cambridge University Press, 2012. – P.203; Sloane, Thomas O. Donne, Milton, and the End of Humanist Rhetoric. Berkeley: University of California Press,1985. – P.332; Welch, Anthony. "Poetic tradition, epic." Milton in Context. Ed. Stephen B. Dobranski. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – P. 68-77; Blake, William. The Poems of William Blake. Ed. W.H. Stevenson. Text. David V. Erdman. 1971. – London: Longman, 1977. – P.1071; Broadbent, J. B. "Milton's Rhetoric." Modern Philology 56.4 (1959): 224-42. JSTOR. Web. 16 March – 2016; Cable, Lana. Carnal Rhetoric: Milton's Iconoclasm and the Poetics of Desire. – Durham: Duke University Press,1995. – P. 231; Donnelly, Phillip J. "Logic." Milton in Context. Ed. Stephen B. Dobranski. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – P. 349-360.

⁴ Anderson, Jarod K. The Decentralization of Morality in Paradise Lost. Ohio University: Rocky Mountain Review. 2010: – P.198-204; Jamal Subhi Ismail Nafi'. Milton's Portrayal of Satan in Paradise Lost and the Notion of Heroism.// International Journal of Literature and Arts 2015; 3(3): P. 22-28 Published online May 11, 2015 (<http://www.sciencepublishinggroup.com/j/ijla>) doi: 10.11648/j.ijla.20150303.11 ISSN: 2331-0553; ISSN: 2331-057X (Online); Gimelli Martin, Catherine. (2001). "What If the Sun Be Centre to the World?": Milton's Epistemology, Cosmology, and Paradise of Fools Reconsidered". Modern Philology 99.2: P.231-265.; Davies, David Oliver. Milton's Socratic Rationalism: The Conversations of Adam and Eve in Paradise Lost. Lexington Books.; Leavis and Eliot's s rejection of Milton. <https://pages.mtu.edu/~rlstrick/rsvtxt/leavis.2017>; C.S. Lewis vs William Empson. Milton's god (2021) Milton Studies (2021) 63 (1): P.62–76.<https://doi.org/10.5325/miltonstudies.63.1.0062>; Banisalamah, Ahmed M. F. Milton's anti monarchical stances

“Yo‘qotilgan jannat”ni axloqning markazlashgan nuqtasi sifatida talqin etilishi, J.Miltonning “Yo‘qotilgan jannat” asarida qahramon tushunchasini shayton tasviri orqali tahlil etilishi, adib asarining kosmologik nuqtayi nazardan o‘rganilishi, Miltonning Sokratcha ratsionalizm asosida taqiq etilishi, adib asarida kodirovkalar nazariyasini ilgari surilishi, shu bilab birga adibning monarxiya pozitsiyasini poetika bilan bog‘lab tadqiq etishi, zamonaviy esselarda J.Milton asarlarining ta‘sirini o‘rganilishi e‘tiborga loyiqdir.

Rus adabiyotshunosligida R.Samarin⁵ Jon Miltonning ijodi xususida monografiya yaratgan bo‘lsa, M.Sokolov⁶ tomonidan Jon Miltonning “Yo‘qotilgan Jannat” asaridagi vaqt va makon tushunchalari asosida tadqiqot amalga oshirilgan, Ye.Tetirina⁷ bu asarning epik an‘analariga urg‘u beradi. Tadqiqotchi V.Temoxin⁸ o‘rta asrda yaratilgan qahramonlik dostonlarini tadqiq etar ekan, shu o‘rinda J.Miltonning mazkur asari xususida ham batafsil to‘xtaldi. Bundan tashqari M.Kaspirina, P.Martisyuk, A.Parinina, L.Popova G.Zalomkina⁹ kabi tadqiqotchilar asardagi obrazlar, uning syujeti hamda g‘oyaviy mazmuni haqida o‘z qarashlarini bayon etishgan.

O‘zbek adabiyotshunosligida esa F.Boynazarov tomonidan yaratilgan “Jahon adabiyoti” o‘quv qo‘llanmasida J.Miltonning hayoti va ijodi xususida so‘z yuritiladi¹⁰. S.Khusanova tomonidan J.Milton asarlarining jahon adabiyotiga ta‘siri o‘rganiladi¹¹. A.Oripov ijodi ko‘p tadqiqotlarga mavzu bo‘lganligi barchaga ayon. Biroq uning teologiyaga bo‘lgan munosabatini sanoqligina tadqiqotlarda duch kelish mumkin¹². Biz tadqiqotga olib chiqayotgan “Odam va shayton” qissasiga

and his poetical, phonetic, rhetorical, and theological crafts. *Canadian Social Science*, 1.11 (2015): P.30-34. Web. 12 Feb. 2015 from <http://www.cscanada.net>. DOI: 10.3968/5466.; Barker, Arthur E. *Milton: modern essays in criticism*. Oxford: Oxford University Press, 1965. – P-483; Daiches, David. *A Critical History of English Literature: Shakespeare to Milton*. – Tamil Nadu, India: Allied Publishers, 1976. – P-245-290.

⁵ Самарин Р.М. Творчество Жона Мильтона. – Москва: Масковские университет, 1964. – 487 с.

⁶ Соколова М.Ю. Особенности пространственно-временных характеристик поэмы Джона Мильтона “Потерянный рай”. Дисс. канд. фил. наук. – Нижний Новгород, 2011. – 175 с;

⁷ Тетерина Е.Н. Эпические традиции в «Потерянном рае» Джона Мильтона и проблема специфики жанра // Дисс. канд. фил. наук. – М., 2003. – 191с.

⁸ Темохин В.В. Поэтика средневекового героического эпоса: Повтор, антитеза, тропы. Диссер. док. фил. Наук. – М., 2000. – С. 440;

⁹ Каспина, Мария Михайловна. Сюжеты об Адаме и Еве в свете исторической поэтики: На материале древней и средневековой еврейской и славянской книжности. Дисс. канд. фил. наук. – М., 2001. – С. 256; Мартысюк П.Г. Эволюция мифологической идеи вечного возвращения в европейской культуре. Диссер.канд.фил.наук. – М, 2008. – 345 с.; Малкова Т. Ю. Полигенетичность демонических образов романа М.А. Булгакова “Мастер и Маргарита”. Автореф.дисс. канд. фил. наук. – Кострома, 2012, – С. 12; Парина А.С. Мотивный комплекс рая в произведениях русской прозы рубежа XX-XXI веков. Автореф.дисс.кан.фил.наук. – Воронеж, 2018, – 12-с; Попова Л.В. “Демоническое” в художественной культуре Серебряного века: культурфилософские аспекты. Диссер.канд.фил.наук. – М, 2014. – 221 с; Заломкина Г.В. Поэтика пространства и времени в готическом сюжете. Дис. на соис. уч. ст. канд. филол. наук. – Самара, 2003. – 224с.

¹⁰ Boynazarov F. *Jahon adabiyoti*. – Toshkent: Musiqa, 2006, – 160 b.

¹¹ Khusanova S. *The Contribution of John Milton's Writings to World Literature*. *Best journal of innovation in science, research and development* ISSN: 2835-3579 Volume:4 Issue:3 | 2025 file:///C:/Users/User/Downloads/173-177+The+Contribution+of+John+Milton's+Writings+to+World+Literature.pdf

¹² Райхонова М. Абдулла Орипов шеърятда оламини идрок этиш ва бадийи воқелантириш тадрижи. филол.фан.бўйича фалс.док. (PhD) дисс. – Қарши, 2021. – 51 б.; Курбанова Н.Р. Нореал ҳаёт тасвирида образ ва хронотоп (Данте Алигьери ва Абдулла Орипов ижоди мисолида). филол.фан.бўйича фалс.док. (PhD) диссер.автор. – Бухоро, 2020. – 48 б.; Ҳамдамов А. Абдулла Орипов шеърятда халқона поэтик тафаккур муаммоси. филол.фан.номз... дисс. – Тошкент, 2011. – 127 б.; Kurbanova Ch. Abdulla Oripov she‘riyatida an‘ana va novatorlik.fil.fan.fal.dok. (PhD) disser. – Samarqand, 2024, – 138 b.

biror monografiya va dissertatsiyalarda to‘liq to‘xtalmaydi, bu asarni “yo‘qotilgan jannat” motivi asosida tadqiq etilmaydi. Nazar Eshonqul ijodi tadqiqi borasida so‘z yuritilganda, ko‘pgina maqolalar ijodkorning hikoyachiligi borasidagi qarashlar sifatida ta’kidlab o‘tish mumkin. To‘g‘ri, N.Raxmatullayev o‘z tadqiqotida “Taqiq mevasi” romanini nazariy jihatdan o‘rganishga erishgan. Biroq u yaratgan tadqiqotning asosiy g‘oyasi mifopoetikadir. “Yo‘qotilgan jannat” motivining jahon adabiyotidagi o‘rni, hamda ijodkorlarning (J.Milton, A.Oripov hamda N.Eshonqul) mahorat darajasida singdirishi muammosi bugungi kungacha monografik planda qiyosiy tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot Samarqand chet tillar instituti Qiyosiy adabiyotshunoslik kafedrasining “Sharq va g‘arb adabiy aloqalari va qiyosiy adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari” mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. J.Miltonning “Yo‘qotilgan jannat” dostoni Abdulla Oripovning “Odam va shayton” she’riy qissasi va N.Eshonqulning “Taqiq mevasi” romanida “yo‘qotilgan jannat” motivining badiiy talqini va poetik ifodasini tahlil qilish orqali, bu motivning diniy, falsafiy va estetik qatlamlarda qanday yondashuvlar bilan ifodalanganini aniqlash, shuningdek, Sharq va G‘arb adabiy tafakkuridagi mushtaraklik va tafovutlarni ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“Yo‘qotilgan jannat” motivining tarixiy, diniy va mifologik ildizlarini aniqlash hamda bu motivning G‘arb va Sharq adabiyotida shakllanish jarayonini yoritish;

J.Miltonning “Yo‘qotilgan jannat” dostoni hamda A.Oripovning “Odam va shayton” qissasi poetikasini, uning diniy-falsafiy asoslari va badiiy tasvir uslublari orqali tahlil qilish;

J.Miltonning “Yo‘qotilgan jannat” dostoni va N.Eshonqulning “Taqiq mevasi” romanida “yo‘qotilgan jannat” motivining zamonaviy talqini qiyosiy aspektida aniqlash;

asarlarda “yo‘qotilgan jannat” motivi orqali ifodalangan ijtimoiy, axloqiy va falsafiy g‘oyalarni syujet va kompozitsion xususiyatlar orqali qiyoslash;

G‘arb (J.Milton) va Sharq (A.Oripov, N.Eshonqul) adiblarining mazkur motivga bo‘lgan yondashuvlaridagi uyg‘unlik va farqli xususiyatlarini aniqlash;

“Yo‘qotilgan jannat” motivining bugungi o‘zbek adabiy tafakkuridagi ahamiyatini aniqlash va adabiy-estetik davomiyligini tahlil qilish.

Tadqiqotning obykti sifatida J.Miltonning “Yo‘qotilgan jannat” dostoni, Abdulla Oripovning “Odam va shayton” qissasi, Nazar Eshonqulning “Taqiq mevasi” romani tanlab olinib, uni qiyosiy tahlil etish jarayonida Sharq va G‘arb adabiyoti hamda ba’zi o‘rinlarda “Injil”, “Qur’oni Karim” singari diniy manbalarga murojaat etiladi. Shu o‘rinda jahon adabiy jarayonida yo‘qotilgan jannat motivi bilan bog‘liq she’riy asarlarga ham e’tibor qaratiladi.

Tadqiqotning predmeti. “Yo‘qotilgan jannat” motivi va uning poetikasi bo‘yicha J.Milton dostoni, Abdulla Oripovning she’riy qissasi hamda N.Eshonqul romani tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada genetik, qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, kompleks tahlil, psixoanaliz, biografik tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

J.Miltonning “Yo‘qotilgan jannat” dostoni, Abdulla Oripovning “Odam va shayton” qissasi va N.Eshonqulning “Taqiq mevasi” romanida gunoh va najot, manaviy tanazzul, hayotiy sinov va ruhiy iztirob tushunchalari poetikasi G‘arb va Sharqning diniy, falsafiy va didaktik donishmandligi bilan tasvir etilganligi isbotlangan;

G‘arb va Sharq adabiyotida “yo‘qotilgan jannat” motivining diniy-falsafiy, estetik hamda badiiy kontekstlari bir-biriga qiyosiy yondashuvda ochib berilib, ijodkorlarning janr va shakl nuqtai nazaridagi qarashlari hamda ularning uslub borasidagi izlanishlari va motivni badiiy asarga olib kirishidagi pozitsiyasi aniqlangan;

“Yo‘qotilgan jannat” motivining A.Oripovda an’anaviylikka urg‘u berilishi, N.Eshonqulda moderncha talqin etilishi, zamonaviy o‘zbek adabiyotida yo‘qotilgan Jannat tushunchasining funksional-estetik yuklamaga ega ekani ilk bor izchil ochib berilib, uning ahamiyati “Odam va shayton” qissasi hamda “Taqiq mevasi” romani misolida belgilangan;

motivga J.Milton, A.Oripov hamda N.Eshonqulning mualliflik yondashuvi teologik asosga ega ekanligi orqali insoniyatning azaliy qadriyatlarini – gunoh, ozodlik, tanlov, ilohiy jazoga munosabat kabi tushunchalarning badiiy aks ettirilishi ilmiy asoslangan;

adabiy tafakkurda jannat obrazining yo‘qotilishi orqali mavjudlik, ruhiyat va axloqiy mezonlarning Odam Ato, Momo Havo va Shayton obrazlarining ichki dunyosi, ruhiy iztiroblari, tanlov hamda fojialarning ruhiyatiga ta’siri masalasi adabiy-falsafiy nuqtayi nazardan yoritilib, asarlaridagi ifodasi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“Yo‘qotilgan jannat” motivi asosida yaratilgan asarlar tahlili orqali G‘arb va Sharq adabiyotidagi badiiy tafakkur va g‘oyaviy yondashuvlarning o‘zaro bog‘liqligi va farqlari haqida aniq tasavvur shakllantirildi;

adabiy motivlarni o‘rganishda ijodkor dunyoqarashi, uning tafakkuri va tasavvuridagi tasvirlarning tayyor syujetga asoslanishi teologik konsepsiyasi ishlandi;

A.Oripov va N.Eshonqul ijodidagi yo‘qotilgan jannat motiviga asoslangan tushunchalarni tadqiq etish orqali zamonaviy o‘zbek adabiyotidagi diniy-falsafiy nuqtai nazar aniqlandi;

tadqiqot natijalari universitet va ilmiy muassasalarda adabiyotshunoslik, komparativistika, estetik-falsafiy yondashuvlar bo‘yicha o‘qitiladigan maxsus kurslar, seminar va amaliy mashg‘ulotlar uchun nazariy va amaliy material sifatida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. muammoning aniq qo‘yilganligi, chiqarilgan xulosalarning asoslanganligi va boshqa fan sohalari bilan ham qiyoslanganligi, G‘arb mumtoz adabiyoti hamda o‘zbek zamonaviy adabiyotida yaratilgan asarlarning qiyosiy manba sifatida tanlanganligi va o‘zining ilmiy isbotini topganligi, ishda qo‘llanilgan yondashuv va usullar, amalga oshirilgan

tahlillarning tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik, biografik metodlari asosida aniqlab berilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qiyosiy adabiyotshunoslik asosida J.Miltonning “Yo‘qotilgan jannat”, A.Oripovning “Odam va shayton” qissasi hamda Nazar Eshonqulning “Taqiq mevasi” asarlarini qiyosiy tadqiq etish, ushbu asarlarning poetikasini o‘rganish, sayyor syujetga asoslangan bu kabi asarlarda ijodkorning individual qarashlariga e’tibor berish hamda yozuvchining badiiy mahoratini aniqlash, jahon adabiyoti durdonalarining jannat tushunchasi talqinidagi qarashlarini o‘zbek adabiyotshunosligida o‘rganilishi borasidagi qarashlarni tadqiq etish, yozuvchilarning mazmuniy-uslubiy uyg‘unligini aniqlash imkonini berish bilan aniqlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati adabiyotdagi “Yo‘qotilgan jannat” motivi asosidagi asarlarning poetikasi, undagi iroda, itoatkorlik, isyon hamda yo‘qotilgan jannatga qaytish yo‘li borasidagi qarashlarni mifologik meros asosida o‘rganish, klassik epik tizimlardan qanday foydalanishini tahlil qilish hamda bugungi adabiyotshunoslikda o‘rganilishi lozim bo‘lgan asarlar faktik material sifatida adabiyotshunoslik mutaxassisliklari uchun hamda “Adabiyotshunoslik nazariyasi”, “Jahon adabiyoti“, “Qiyosiy adabiyotshunoslik” o‘quv kurslari, umumta’lim maktablarining “Adabiyot” o‘quv predmeti bo‘yicha darslik, o‘quv qo‘llanma, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar yaratishda, ma’ruza va seminar mashg‘ulotlarini olib borishda, bitiruv malakaviy va magistrlik ishlarini bajarishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Badiiy adabiyotda “Yo‘qotilgan jannat” motivi va uning poetikasi” muammosi qiyosiy-tipologik tadqiqi J.Miltonning “Yo‘qotilgan jannat” dostoni, A.Oripovning “Odam va shayton” qissasi hamda N.Eshonqulning “Taqiq mevasi” asarlari misoli yuzasidan olingan ilmiy natijalar va amaliy takliflar asosida:

J.Miltonning “Yo‘qotilgan jannat” dostoni, A.Oripovning “Odam va shayton” qissasi hamda N.Eshonqulning “Taqiq mevasi” romanida yo‘qotilgan jannat motivi o‘zaro qiyosiy poetik tahlil asosida o‘rganilib, asarlardagi G‘arb falsafasi Sharq donishmandligi bilan omuxtalashtirilgan holda tasvir etilganligi borasidagi nazariy xulosalardan REP-25112021/113- UzUDT: “O‘zbek tilida tabiiy tilni qayta ishlash uchun universal bogliqlik daraxti korpusi va uning semantik tahlili mavzusidagi fundamental ilmiy loyihani bajarishda foydalanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 29-avgustdagi №04/11-15618 sonli-ma’lumotnomasi). Natijada adabiyotshunoslikda “Yo‘qotilgan jannat” motivi Sharq va G‘arb tafakkurining asosiy o‘zagi bo‘la olishi jahon adabiyoti durdonalariga oid materiallar va xulosalar bilan boyitilgan;

G‘arbiy va Sharqiy adabiyotda “yo‘qotilgan jannat” motivining diniy-falsafiy, estetik hamda badiiy kontekstlari bir-biriga qiyosiy yondashuvda ochib berilib, ijodkorlarning o‘ziga xos pozitsiyasi aniqlanganligiga oid xulosalardan IL-7823051524-sonli “Paratranslator: parallel korpusga asoslangan kontestologik elektron tarjima lug‘at platformasini yaratish” mavzusidagi fundamental ilmiy

loyihalarni bajarishda foydalanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 10-oktyabrdagi №04/11-22094 sonli ma‘lumotnomasi). Natijada Sharq va G‘arbning adabiy qarashlarida “Yo‘qotilgan jannat” motivining sayyor syujetga ega ekanligi, asar matni orqali bu motiv har ikki qarashlarda o‘ziga xoslikni namoyon etishi, unda ijodkor shaxsining motivga yondashishi jihatlarini talqin etishda yozuvchi mahorati, syujetdan foydalanishdagi individualligini aniqlashda foydalanilgan;

A.Oripov va N.Eshonqul ijodida bu motivning yangicha talqini va zamonaviy o‘zbek adabiyotida qanday funksional-estetik yuklamaga ega ekani ilk bor izchil tahlil qilinib, hozirgi adabiy jarayonda motivning ahamiyati belgilanganligiga oid nazariy xulosalardan SUZ80020GR0039-raqamli “English Access Microscholarship Program” mavzusidagi fundamental tadqiqot loyiha ishini bajarishda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2026-yil 12-martdagi № 945/02-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada N.Eshonqul an‘analardan foydalanishda sayyor syujetga murojaat etishi, unda ijodkorning poetik mahorati, obraz yaratishdagi o‘ziga xosligiga oid nazariy qarashlarni boyitishga xizmat qilgan;

motivga berilgan individual mualliflik yondashuvi (J.Milton, A.Oripov va N.Eshonqulning) orqali insoniyatning azaliy qadriyatlari – gunoh, ozodlik, tanlov, ilohiy jazoga munosabat kabi tushunchalarning badiiy aks ettirilishi ilmiy asoslanganligi to‘g‘risidagi ilmiy-amaliy natijalardan AL-442105887-sonli-“Raqamli arxiv: O‘zbekiston Milliy arxivi fondlarining onlayn yo‘l ko‘rsatkichini yaratish” mavzusidagi ilmiy amaliy loyihalarni bajarishda foydalanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 6-noyabrdagi № 04/11-27059 sonli raqamli ma‘lumotnomasi). Natijada bu ijodkorlarning asarlarining yaratilishida bir qancha tarixiy va diniy manbalarning asos bo‘lganligiga oid qarashlar aniqlangan;

Adabiy tafakkurda jannat obrazining yo‘qotilishi orqali insonga oid mavjudlik, ruhiyat va axloqiy mezonlarning qanday shakllanishi masalasi adabiy-falsafiy nuqtayi nazardan yoritilib, bugungi asarlaridagi ifodasi isbotlanganligi borasidagi nazariy xulosa va natijalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston-24” ijodiy birlashmasi “O‘zbekiston” teleradiokanalining “Ta‘lim va taraqqiyot”, “Adabiy jarayon”, “Jahon adabiyoti” dasturlari ssenariysini tuzishda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 05-09-1676-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada ushbu teleko‘rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashuvi haqidagi ma‘lumotlar Samarqand teleradiokompaniyasi ijodiy jamoasining mavzu doirasida chuqurroq mulohaza yuritishi uchun zamin yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda qilingan ma‘ruzalarda aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 22 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 16 ta ilmiy maqola,

jumladan, 10 ta respublika miqyosidagi va 6 ta xalqaro bazalar ro‘yxatiga kirgan xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, asosiy to‘rt bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, umumiy hajmi 242 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, olingan natijalarning ishonchligi, ishning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Yo‘qotilgan jannat” motivi va uning adabiyotdagi ifodasi** deb nomlangan bo‘lib, u ikki falsdan iborat. Birinchi faslda **“Yo‘qotilgan jannat”ga jahon adabiyotidagi munosabatlar** o‘rganilgan. Jannat xronotopi o‘zida ideal tasvirni ifoda etib, boqiylikni, baxtga to‘la hayot tasvirini beradi. Shu bois ham bu kabi tasvir badiiy adabiyotga o‘tib, uni yanada jozibalibroq, yanada maftunkorroq, orzularning yanada eng yuqori cho‘qqisi sifatida ifoda etildi. Jannat xronotopi ideallashganligi bois undan mahrum bo‘lish jarayonini muqaddas kitoblarda talqin etildi. Jahon adabiyoti durdonalariga razm tashlansa, “Yo‘qotilgan jannat” makon xronotopi bo‘lib, u insoniyatni qayg‘usiz va boqiy yashash imkonini beruvchi zamin ekanligi ayonlashadi. Darhaqiqat, diniy asarlarga razm solamizmi yoki shu motivni asos sifatida o‘ziga ifoda etgan jahon durdonalariga e‘tiborimizni qaratamizmi, barchasida “Yo‘qotilgan jannat” tushunchasi insoniyatni orzu-umidga yetkazuvchi xronotop ekanligidan darak beradi. Biroq, bu tushunchaga davrlar o‘tishi bilan qarashlar ham o‘zgarib bordiki, bu qarashlarda “Yo‘qotilgan jannat” tushunchasi bir qancha rakurslarda o‘z ifodasini topa boshladi. Bu syujet badiiy asarlarga ko‘chib o‘tar ekan, u haqdagi qarashlar ham asta-sekinlik bilan reallasha boshladi. Shu bois ham biz mazkur tadqiqotimizda, quyidagicha tadqiq etdik:

1.1-jadval

“Yo‘qotilgan jannat” syujetining turlari va ularga adabiyotdagi munosabatlar

“Yo‘qotilgan jannat” syujetining turlari				
Mifologiyada jannat – Olimp tog‘i xronotopi sifatida;	“Yo‘qotilgan jannat”ning badiiy adabiyotdagi aksi;	G‘arb adabiyotida “Yo‘qotilgan jannat” motivi;	Sharq adabiyotida motivga munosabat;	Zamonaviy adabiyotda “Yo‘qotilgan jannat” motivi.

Yunon mifologiyasining asosiy jannat xronotopi bu – Olimp tog‘idir. Bu makon “Yo‘qotilgan jannat” motivini bir qancha mifologik obrazlar bilan bog‘laydi¹³. Birgina G‘arb, ya‘ni yunon mifologiyasining asosi Olimp tog‘i bilan

¹³ Мартысюк П.Г. Эволюция мифологической идеи вечного возвращения в европейской культуре. Диссер.канд.фил.наук. – М, 2008. – 345 с.; Антонян, Ю. М. Миф и вечность – М.: Логос, 2001. – 464 с.;

belgilanadi. G‘arb mifologiyasidagi afsona va rivoyatlarni tadqiq etsak, unda “Yo‘qotilgan jannat” tushunchasi bir qancha ma‘budlarga tegishlilik kasb etadi. Masalan, Zevsning suyukli yori Ion uchun jannat batamom yo‘qoladi. Ya‘ni Zevsning turmush o‘rtog‘i Hera, Zevs va Ion ishqiy aloqalarni bilib qolishi natijasida bu aloqalarni batamom yo‘q qilishga harakat qiladi. Zevs esa o‘z navbatida Ionni saqlab qolish uchun uni oppoq sigir qiyofasiga kiritib qo‘yadi. Biroq Hera bundan voqif bo‘lib, Zevsdan ana shu sigirni tuhfa qilishini so‘raydi. Natijada, Zevs sigir Ionni unga sovg‘a qiladi. Keyinchalik Zevs Ionni azob chekayotganini bilganidan so‘ng uni o‘g‘irlashni buyuradi. Ionni o‘g‘irlab Misrga yetkazishadi. Ion uchun Olimp tog‘i ya‘ni Jannat “yopiq maskan”(yo‘qotilgan jannat)ga aylanadi. Ion uchun mana endi “jannat” Misr maskani sifatida talqin etiladi. Yoki, Zevsning yana bir yori Latona hayotiga nazar tashlasak, unda ham Ionning taqdirini anglab olishimiz qiyin emas. Chunki Latona ham Heraning g‘azabidan, u tomonidan yuborilgan Pifon nomli timsoh ta‘qibidan qochib Delos oroliga borib yetadi. Keyinchalik Delos oroli Latona va uning o‘g‘li Appolon sabab jannatmakonga aylanadi. Demak, “jannat” tushunchasi orzu-umidlarni o‘zida ifoda etgan va baxtli hayot kechira oladigan makon sifatida e‘tirof etishimiz mumkin bo‘ladi.

Motivning G‘arb va Sharqdagi o‘ziga xos qarashlari mavjud. G‘arbdagi qarashlar “Injil”, “Xristian teologiyasi”ga tayanilsa, Sharqdagi qarashlar “Qur‘oni Karim”, “Hadis”, “Tasavvuf”ga tayanadi. G‘arb adabiyotida bu motivni o‘ziga singdirgan talaygina asarlar mavjud. Jumladan, Dante Allegeri “Ilohiy komediya”si (1308-1321-yillarda yaratilgan) (La Divina Commedia)¹⁴ orqali G‘arb adabiyotida jannat va do‘zaxning eng ta‘sirchan va allegorik tasvirni yaratib beradi. Natijada Dante o‘zining ruhi orqali uchta olam – do‘zax, a‘rof va jannatni kezib chiqadi. Har bir makonda inson gunohlari, unga beriluvchi jazolar va mukofotlar haqida diniy-falsafiy tahlillarni beradi¹⁵. Jon Miltonning “Yo‘qotilgan jannat” (1667-yilda yaratilgan) (Paradise Lost)¹⁶ asarida Iblisning jannatdan quvilishi, Odam Ato va Momo Havo gunohi orqali insoniyatning jannatdan chiqarilishi, do‘zax va jannat o‘rtasidagi azaliy kurash xususida so‘z yuritadi¹⁷. Protestant tafakkuri va diniy-falsafiy qarashlar asosida yozilgan bu epik poema jannat va do‘zax timsollarini poetik va dramatik ifoda qilgan. Uilyam Bleykning “Jannat va do‘zaxning nikohlanishi” (1790-1793-yillarda yaratilgan) (The Marriage of Heaven and Hell)¹⁸da Jannat va do‘zax o‘rtasidagi xususiyatlar ochib beriladi¹⁹. Bu asar mistik va fantastik xususiyatga ega bo‘lib, unda jannat va

Буслаев, Ф. И. Народный эпос и мифология: сборник. – М.: Высш. шк., 2003. – 400 с.; Горан, В. П. Древнегреческая мифологема судьбы. – Новосибирск : Наука, 1990. – 335 с.; Голосовкер, Я. Э. Логика мифа. – М.: Наука, 1987. - 218 с.; Делез, Ж. Логика смысла. – М. : Академия, 1995. – 298 с.

¹⁴ Данте А. Божественная комедия. – М.: Наука, 1967. – 655 с.

¹⁵ Сергеев К. "Божественная Комедия", как философский текст: к истории представлений о сознании в средние века. Диссер. канд.филол.наук. – М., 2005. – 147 с.

¹⁶ Милтон Ж. Потерянный рай. – М.: Художественная литература, 1976. – 596 с.

¹⁷ Sloane, Thomas O. Donne, Milton, and the End of Humanist Rhetoric. – Berkeley: University of California Press, 1985. – P.360.

¹⁸ Блейк У. Бракосочетание Рая и Ада. – М.: ЭКСМО, 2006. – 11 с.

https://royallib.com/read/bleyk_uilyam/brakosochetanie_raya_i_ada.html#0 (23.04.2025)

¹⁹ Смирнова О.М. Пророческие поэмы Уильяма Блейка. Диссер.конд.фил.наук. – М, 2009. – 249 с.

do‘zaxni faqat din doirasida emas, balki inson tafakkuri va ruhiy holati bilan bog‘lab tasvirlaydi. Asosiysi, Iblis va farishtalarning rollari o‘zgacha talqinda tasvir etiladi.

Sharq adabiyotida “Yo‘qotilgan jannat” motivi asosiy motivlardan biri sifatida e‘tirof etilgan. Bu tushuncha Imom al-G‘azzoliyning “Ihyo ulum ad-din”²⁰ asarining asosiy g‘oyasini tashkil etadi. Mazkur asarda adib “yaratilmoq” tushunchasini taftish etadiki, undagi taftish Ollohning yaratuvchanligi, hamma narsaga qodirligi, inson anglamagan holatda ham bu tushuncha barqaror qolishi borasidagi qarashlarga oydinlik kiritadi. Asarda Imom G‘azzoliy din ilmlari, axloq, poklik, jazolar va mukofotlar haqida keng fikr yuritadi. U jannat va do‘zax tafsilotlarini “Qur‘oni Karim” hamda hadislarga suyangan holda keltiradi. Imom G‘azzoliyning yana bir asari “Mukoshafat-ul qulub”²¹ da ham mazkur motivga asoslanganligiga guvoh bo‘lish mumkin. Shu bilan bir qatorda A.Firdavsiyning “Shohnoma”²² (Jamshid obrazi misolida), Fariduddin Attorning “Ilohiynoma”²³, “Tazkiratul avliyo”²⁴, “Mantuq ut tayr”²⁵, Nosiriddin Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy”²⁶, A.Navoiyning “Tarixiy anbiyo va hukamo”²⁷ asarlarida bu motiv o‘z ifodasini topgan. Keltirilgan asarlarda motiv insoniyat ibtidosi, sharq falsafiy qarashlari hamda tasavvuf tushunchalari bilan bog‘liq holda belgilanadi.

G‘arb va Sharq adabiyotida motivning tasvir uslubida ikki xil xususiyat ko‘zga tashlanadi. G‘arbda allegorik, epik, dramatik xususiyatlar yetakchilik qilsa, Sharqda tasavvufiy, axloqiy, falsafiy qarashlar yetakchilik qiladi.

Zamonaviy adabiyot haqida so‘z ketganda, “Yo‘qotilgan jannat” motining bir qancha rakurslarga ega ekanligi ayonlashadi. Motivning birinchi ko‘rinishi sayyor syujetning saqlab qolinishi va uni o‘z holatida badiiy bo‘yoqlar asosida o‘quvchiga taqdim etishdir. Bu ko‘rinishni biz Sharq adabiyotida Fitratning “Shaytonning tangriga isyoni” dramasida hamda Abdulla Oripovning “Odam va shayton qissasi”da kuzatamiz.

Ikkinchi faslda **“Motivning diniy-falsafiy asoslari”** tadqiq etilgan. “Yo‘qotilgan jannat” motivining diniy-falsafiy asoslari – bu adabiyot, falsafa va dinshunoslikda chuqur ildizga ega bo‘lgan murakkab va sermazmun g‘oya bo‘lib, u insoniyatning jannatdan quvilishi, gunohga botishi, erkin iroda, Xudoning adolati, va najot masalalari bilan chambarchas bog‘liq. Dinning muqaddas kitobi sanalgan “Tavrot”da jannat Adan bog‘i deya e‘tirof etilgan. Mazkur makonda bir qancha obrazlar qo‘nim topgan bo‘lib, keyinchalik ular uchun jannat qopqalari

²⁰ Имом Абу Хомид Муҳаммад ибн Муҳаммад ал-Ғаззолий. Ихёу улумид дин. – Тошкент: O‘zbekiston, 2019. – 512 б.

²¹ Имом Абу Хомид Муҳаммад ибн Муҳаммад ал-Ғаззолий. Муҳошафат-ул қулуб. – Тошкент: Адолат, 2022. – 288 б.

²² Фирдавсий Ф. Шоҳнома. – Тошкент: Алишер Навоий номаидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2012. – 188 б.

²³ Фаридуддин Аттор. Илоҳийнома. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2022. – 496 б.

²⁴ Фаридуддин Аттор. Тазкиратул авлиё. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2013. – 464 б.

²⁵ [https://n.ziyouz.com/books/sharq_mumtoz_adabiyoti/Farididdin%20Attor.%20Mantiqut-tayr%20\(nasriy%20bayoni\).pdf\(13.01.2025\)](https://n.ziyouz.com/books/sharq_mumtoz_adabiyoti/Farididdin%20Attor.%20Mantiqut-tayr%20(nasriy%20bayoni).pdf(13.01.2025))

²⁶ Носириддин Рабғузӣй. Қиссаси Рабғузӣй. – Тошкент: Ёзувчи нашриёти, 1991. – С. 24.

²⁷ Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. – Самарқанд: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриётининг бўлими, 1990. – 8-б.

yopilgan. Shu bois ham Jannat qopqalari yopilgan obrazlarni “Yo‘qotilgan jannat” motivining diniy-falsafiy asoslari asosida tahlil etamiz. Birinchi obraz bu – Shayton. Shayton obrazi murakkab obrazlardan biri bo‘lib, u nafaqat insoniyatning dushmani balki Lain tavqi lanatda duchor bo‘lgan, boqiy jannatga muyassar bo‘la olmaydigan obrazlardan biridir. Undagi kibr bir umrga jannatdan quvilishga yetarli hisoblanadi. Bu obraz haqida “Qur’oni Karim”ning “Sod” surasi (71-83-oyatlari)da quyidagicha ma’lumotlar keltiriladi: “Eslang, Parvardigoringiz farishtalarga degan edi: “Albatta Men loydan bir odam yaratuvchiman. Bas, qachon uni tiklab, unga o‘z ruhimdan puflab kirgizganimdan so‘ng unga sajda qilgan holingizda yiqilinglar!” Farishtalarning barchasi sajda qildilar, magar iblisgina kibr-u havo qilib, kofirlardan bo‘ldi. (Shunda Alloh) dedi: “Ey iblis, Men O‘z “qo‘llar”im bilan yaratgan narsaga sajda qilishdan nima seni man qildi? Kibr-u havo qildingmi yoki sen yuksak martabali zotlardan edingmi?”²⁸. Iblisning javobi esa shunday edi: “Men undan yaxshiroqman, sen meni olovdan yaratgansan, uni esa loydan yaratding. Bas, undan (jannatdan) chiq! Endi sen shubhasiz quvilgan – mal’unsan. Va albatta, to jazo kuni (Qiyomat)gacha senga Mening la’natim bo‘lur”²⁹.

“Tavrot”da bu obraz birmuncha o‘zgacha qiyofada tasvirlanadi. Masalan, “Ayyub kitobi”da Shayton sinovchi maxluq sifatida e’tirof etiladi. U Xudoga mute bo‘lib, asosiy vazifasi insonlarni sinashdan iboratdir. Shu bois ham Ayyubni sinash uchun uning bor-budidan ajratish lozimligini ta’kidlab o‘tadi. O‘shandagina Ayyubning haqiqiy qiyofasi ma’lum bo‘lishini ta’kidlaydi (Ayyub kitobi)³⁰. Aslida shayton ibroniy tilda satan deb nomlanib, Xudoning buyrug‘ini sinov sifatida bajarayotgan maxluq etib tasvirlanadi. Yoki “Zakariyo kitobi”da shayton har doim ham mutlaqo yovuz kuch emas, balki Xudoning sinovchi va ayblovchi maxluqi sifatida e’tirof etiladi³¹. Uning asosiy vazifasi inson irodasini sinash, sadoqatini o‘lchash uchun yaralgan vositachi ekanligida. Demak, shayton obrazini biz “Tavrot”da salbiy qiyofada kuzata olmaymiz. Uni faqat Xudoning irodasini bajaruvchi maxluqot sifatida anglash mumkin bo‘ladi.

Dovud payg‘ambarga nisbat berilgan “Kitob al-Mazmir”, “Psalms” yoki “Zabur” deb tanilgan muqaddas matnda shaytonning to‘g‘ridan-to‘g‘ri nomi juda kam tilga olinadi. Biroq uning funksional vazifasi xususida aniq ma’lumotlar taqdim etiladi. Darhaqiqat, “Zabur”da insonning gunohga moyilligi, vasvasaga uchrashi va yovuz kuchlarning inson qalbiga ta’siri borasida mulohazalar keltiriladi. Bu yovuzlik manbai to‘g‘ridan-to‘g‘ri shayton deb atalmaydi, balki shaytoniy tabiat(yovuzlikka yetaklovchi kuch)sifatida berib boriladi. “Zabur”da ko‘p hollarda “dushmanlar” haqida so‘z boradi. Bu dushmanlar faqat inson emas, ma’naviy yovuz kuchlar, ya’ni shaytoniy tabiat ramzidir. Albatta, bu kabi qarashni biz, bemalol jannatdagi taqiq mevasi bilan bog‘lashimiz mumkin. Mana shu taqiq “Yaxshilik va yomonlikni bilish mevasi”dan yeyishi natijasining mahsulidir.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “Jon Miltonning “Yo‘qotilgan jannat” asaridagi badiiy mezonlar” deb atalgan. Mazkur bob uch fasldan iborat. Birinchi

²⁸ Qur’oni Karim. Abdulaziz Mansur tarjimasini. – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashri, 2004.

²⁹ Qur’oni Karim. Abdulaziz Mansur tarjimasini. – Toshkent: Toshkent islom universiteti nashri, 2004.

³⁰ Muqaddas kitob. Eski ahd. Ayub va uning tortgan azob-uqubatlari. Ayub. 1-42-boblar. – Toshkent, 2020. – 852-b.

³¹ Muqaddas kitob. Eski ahd. Zakariyo kitobi. 15-bob. – Toshkent, 2020. – 640 b.

faslda “*Asarning janr va kompozitsion xususiyatlari*” muammosiga oydinlik kiritilishiga harakat qilingan. Jon Miltonni jahonga tanitgan asari “Yo‘qotilgan jannat”, “Topilgan jannat”dir. “Yo‘qotilgan jannat” asari uch asr davomida tortishuvlarga sabab bo‘lib kelmoqda. Shu bois ham yuzdan ortiq tadqiqotchilarni bu asarga murojaat etishi kuzatiladi. Asarni jahon adabiyotshunosligida birinchilardan bo‘lib o‘rgangan olimlar J.Addisson, S.Johnson, D.Masson, T.B. Mackoley, G.Campbell, R.Daniells, R.M.Frye, M.Roston, R.D.Emma, A.D.Ferrylardir. Adibning asarlari shu darajada jahon adabiyotiga ta’sir etadiki, natijada Miltonning badiiy maktabi, miltonshunoslik yuzaga keladi³².

J.Addisson Milton asarlariga qiziqishi o‘laroq o‘z jurnalida uning asarlarini nashr eta boshlaydi. Jahon adabiyoti va adabiyotshunosligi Jon Miltonni mana shu jurnal orqali tanishdi³³. D.Masson qarashlarida XVII asrning 40-yillaridanoq asarlarda yuksak g‘oyalarning ifoda etilishiga alohida ahamiyat qaratdi. Jon Milton asari esa ana shunday g‘oyalarni bera olishi bilan muhim ahamiyat kasb etdi³⁴. S.Johnson tadqiqotlarida J.Miltonning “Yo‘qotilgan jannat”ni kompleks yondashish uchun asos yaratadi kabi tushunchalar anglashiladi³⁵. Shoir J.Donne J.Milton asarlaridan ilhom oladi. Uning nigohlarida Milton tabiat muvozanatini saqlab qolgan shoirdir. Shu bois ham musavvir va shoir o‘rtasidagi tasavvur pallalarining qay biri mahorat jihatdan og‘irroq yuk bosa olishi yuzasidan fikr-mulohazalari bilan bo‘lishadi³⁶. R.M.Samarin “Jon Milton ijodi” nomli monografiyasida (A.Lunacharskiy fikrlariga tayangan holda) ijodkorning ikkita poemasini yuksak mahorat bilan yozilgan deya qayd etadi. Shulardan biri sifatida “Yo‘qotilgan jannat” deya e’tirof etadi.

“Yo‘qotilgan jannat” dostonining kompozitsion qurilishi simmetrik va spiral

³² Stern. Milton und Cromwell. – Berlin, 1875. – P.38; Bascom. J.Philosophy of English Literature. N. Y., 1874. – P.172; Masson D., The Life of Milton.1859. – P. 711; Pallison. Milton 1859. – P. 536; Garnett R., The Life of Milton.1890. – P.205; A.J.George.The shorter poems of J.Milton. N. Y., 1898. – P.153; Ralei W.gh. Milton.1900. – P. 325; Parker Th., O.Gromwell in der schönen Literatur Englands. Freiburg, 1920. – P. 550; Bridges H.S. Milton’s Prosody. L., 1921. – P.140; J.Hanford. A Milton Handbook. L., 1927. – P. 374; D.Saurai. Miiton etle matérialisme chrétien en Angleterre. – Paris, 1928. – P.208; D.Saurat. Milton; Man and Thinker. N. Y. . 1930. – P. 400; E.Tillyard. Milton. L., 1930.– p.217; J.Bailey. Milton. L., 1930.– P.170; T.S.Eliot. Selected Essays. L., 1931.– P.432; J Whaler. The Miltonic Simile. PMLA, 1931. – P. 21; T.Spencer and M. van Doren. Studes in Metap hysical Poetry. – Columbia, 1939. – P.88; Bowra. From Virgil to Milton. L., 1945. – P.195; Corcoran M.I. Milton’s Paradise Lost: a Reference to the Hexatn eral Background . Waashigton, 1945. – P. 466; Kenneth Muir. John Milton. L., 1960, – P. 107; Ferry. A.D. Milton and the Miltonic Dryden. – Cambridge, 1968. – P.264; A.В.Луначарский. И стория западноевропейской литературы в ее важнейших моментах.Т.1. –М., 1924. – 224 с.; Белинский В.Г. Собр. соч. в 3-х т., т. 2. Разделение поэзии на роды и виды М., 1948. – С.34; И.С.Кон. Дж.Мильтон как социально-политический мыслитель. «Вопросы философии», 1959, № 1; И.С.Кон. Политические воззрения Джона Мильтона. «Уч,зап. Вологодского ГОИ», т. IX, 1961. –С. 465-504; Чамеев А.А. Джон Мильтон и его поэма «Потерянный рай». Ленинград, 1986. – С.107; Campbell G. Introduction and notes to «J. Milton. The complete poems»; Campbell G., Corns T. N. John Milton. «Life, Work and Thoughts» Oxford, 2008– P.110; Rogers Rogers J.Milton with Professor John Rogers. <http://oyc.yale.edu/english/milton/2012> . – P.179; . Тетерина Е.Н. Эпические традиции в «Потерянном рас» Джона Мильтона п проблема специфики жанра // Дисс. канд. фил. наук. – М., 2003. – P.175; Шашкова Е.С. Влияние античного наследия на творчество Мильтона // Дисс. канд. фил. наук. – М , 2007. – С. 224; Моськина О.В Ранняя лирика Мильтона: к проблеме источника//Дисс. канд. фил наук. – М., 2006. – С.216; Горбунов А.Н. Поэзия Дж. Мильтона (от пасторали к эпосе) // Джон Мильтон. Потерянный рай, Возвращенный рай и другие поэтические произведения. – М., 2006. – С.582; Аникст А.А. История английской литературы. – М., 1956. – 414 с.

³³ Addison J. Notes upon the Twelve Books of Paradise Lost. L., 1835. – P.148.

³⁴ D.Masson, The poetical works of John Milton. McMillan and C°, v o l. I– II. L., 1874. – P. 413.

³⁵ S.Johnson. Selected works. L., 1903. – P. 205.

³⁶ J.Donne. Poetry and, selected prose. L., 1939. – P.338.

(bir-biri bilan bog‘liq va bosqichma-bosqich) shaklga ega. Biroq bu asarda ham ana’naviy syujet unsurlari o‘z ifodasini topgan. Ekspozitsiya, tugun, kulminatsiya, voqealar rivoji (peripetiya) va yechim kabi syujet unsurlari shular jumlasidandir. Syujetning ekspozitsiya qismini dostonning birinchi va ikkinchi kitoblarida uchratsak (Iblisning jannatdan qulaganidan keyingi holati bilan boshlanadi), asarning tugunini uchinchi va to‘rtinchi kitoblarida anglay boshlaymiz (Iblisning Adan bog‘iga yo‘l olishi va Odam Atoni yo‘ldan ozdirishga harakat qilishi). Konflikt ham asarning beshinchi va oltinchi kitobiga to‘g‘ri keladi (shu o‘rinda asarda insoniyatga ogohlik sifatida berilgan bashoratlar ham mavjud bo‘lib, voqelikni o‘ziga xos tarzda berishi bilan konfliktni (odamzodni sinovga tortilishi) yarata olgan). Kulminatsiya esa yettinchi va to‘qqizinchi qismlarda o‘z ifodasini topadi (Iblisning Momo Havoni aldashi va Odam Atoning gunohga qo‘l urishi voqeayligi). Asarning yechimi sifatida o‘ninchi va o‘n ikkinchi kitoblar (qism)ni ta’kidlash mumkin (unda gunohning oqibatlari, insoniyatning jannatdan quvib chiqarilishi, lekin umid uchqunining taqdim etilishi). Bu kabi syujet elementlarining berilishi doston janrining janriy xususiyatlarini keltirib chiqargan.

“Yo‘qotilgan jannat” kompozitsion jihatdan murakkab asar bo‘lib, o‘n ikkita kitobdan iborat. Jon Milton ushbu asaridagi har bir qismni kitob deb ataydi. Mazkur epik poema (epos)da xristian e’tiqodi asosida insoniyat tarixidagi eng muhim voqeani epik tarzda ifodalashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Shu bois ham “Men odamzodning qulashini tasvirlab, Xudoning rejalarini oqlash uchun yozmoqdaman” (“To justify the ways of God to men”) deya birinchi kitobida ta’kidlab o‘tadi. Adib, asosan, Homer va Vergiliy an’analariga tayanadi. Shuning uchun mazkur asarni diniy epos (sacred epic) deb atash mumkin. R.Samarin “Jon Milton ijodi” nomli monografiyasida asarni oq she’r vaznida yozilgan deya e’tirof etadi³⁷. Darhaqiqat, shoir o‘z asariga qofiyasiz she’r (blank verse) shaklini tanlaydi. Ammo besh urg‘uli bo‘g‘indan iborat ohangdor metrikada (iambic pentametr) yozadi. Bu usul esa o‘z navbatida unga monumental, falsafiy va dramatik ohang yaratish imkonini beradi.

Ikkinchi faslda “*Muallifning obraz yaratish mahorati*”ga e’tibor qaratildi. “Yo‘qotilgan jannat” (Paradise Lost) asarida obraz yaratish mahorati – uning eng yuksak badiiy yutuqlaridan biri desak mubolag‘a bo‘lmaydi. J.Milton o‘zining falsafiy, diniy, poetik bilimlari, dramatik ifoda vositalari va klassik adabiyotdan olgan saboqlari orqali obrazlarini mahorat darajasida yarata oldi. Shoir ushbu epik dostoni bilan G‘arb adabiyotida tub burilish yasabgina qolmay, Yevropa adabiyotidagi eng chuqur diniy-falsafiy asarni taqdim eta olgan ijodkor bo‘lib jahonga tanildi. U diniy rivoyatga asoslangan voqeani falsafiy hamda badiiy tafakkur bilan qayta talqin etdi.

J.Miltonning obraz yaratish mahorati uning obrazlarining ichki dunyosini, ruhiy iztiroblarini, tanlov hamda fojialarini yoritishi bilan ahamiyatli. Asarda asosiy obrazlar chuqur psixologik hamda estetik darajaga egadir. Dostonning asosiy obrazlari sifatida Shayton (Iblis), Odam Ato, Momo Havoni ta’kidlashimiz mumkin. Shoir obraz yaratishda murakkab psixologik portretlarga urg‘u berdi.

³⁷ Самарин Р.М. Творчество Жона Мильтона. – Москва: Масковские университет, 1964. – 9-с.

Natijada uning qahramonlari – bir yoqlama emas, balki ichki ziddiyat, qarama-qarshilik, iztirob bilan yashovchi mavjudotlar sifatida asarda shakllandi. Asardagi obrazlar shunchaki voqealarda qatnashmaydi; ular insoniyat, axloq, gunoh, iroda, najot, yovuzlik haqida bahs yuritadilar. J.Milton ularni falsafiy pozitsiyalar tashuvchisi sifatida tasvirlaydi.

“Yo‘qotilgan jannat” asaridagi eng murakkab obraz Iblis bo‘lib, u tragek qahramon hamdir. Milton Iblisni nafaqat yovuzlik sifatida, balki mag‘rurligi, qat‘iyati, azob-uqubatga chidashi, erkka intilishi bilan murakkab ruhiy qahramon sifatida tasvirlaydi. Asarda keltirilgan Iblisning mashhur nutqi “Better to reign in Hell than serve in Heaven” (jannatda xizmatkor bo‘lganimda ko‘ra jahannamda hukmronlik qilganim afzal) ham fikrimizni isbotlaydi. Bu jumla orqali Milton Iblis timsolida insondagi isyon, g‘urur, irodaning cheksiz kuchi, fojiaiy mohiyatini ochib beradi: – *Is this the Region, this the Soil, the Clime, // Said then the lost // Arch-Angel, this the seat // That we must change for Heav’n?—this mournful gloom // For that celestial light? Be it so, since he // Who now is Sovran can dispose and bid // What shall be right: farthest from him is best // Whom reason hath equall’d, force hath made supreme // Above his equals. Farewell happy Fields // Where Joy forever dwells: Hail horrors, hail // Infernal world, and thou profoundest Hell // Receive thy new Possessor: One who brings” A mind not to be chang’d by Place or Time. // The mind is its own place, and in itself // Can make a Heav’n of Hell, a Hell of Heav’n. // What matter where, if I be still the same, // And what I should be, all but less than he // Whom Thunder hath made greater? Here at least // We shall be free; th’ Almighty hath not built // Here for his envy, will not drive us hence: // Here we may reign secure, and in my choice // To reign is worth ambition though in Hell: // Better to reign in Hell, then serve in Heav’n. // But wherefore let we then our faithful friends, // Th’ associates and co-partners of our loss // Lie thus astonisht on th’ oblivious Pool, // And call them not to share with us their part // In this unhappy Mansion, or once more // With rallied Arms to try what may be yet // Regain’d in Heav’n, or what more lost in Hell?*³⁸

Iblis mag‘rurlik timsolidir. Yuqorida keltirilgan parchada uning mag‘rurligi Yaratganga itoat etmasligidan dalolat beradi. Mag‘lub bo‘lgan yelka kurashga to‘ymaydi deganlaridek, Iblis ham jannatda xizmatkor bo‘lishdan ko‘ra jahannamda hokim bo‘lishni afzal biladi. Natijada jahannamdan Jannat yaratishga harakat qiladi. Shu bois ham jannatni do‘zaxga aylantirdim, do‘zaxni esa jannatga aylantira olaman degan umid bilan yashaydi. Qayerda bo‘lishidan qat‘iy nazar o‘zligimni yo‘qotmayman degan qarash esa Iblisning xarakter xususiyatini belgilaydi. Asarda bu kabi o‘ziga ishonch chiroyli ritorik nutq orqali berilganki, unda ijodkorning mahorati yaqqol seziladi. U muqarrar boshiga tushushi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni pisand ham qilmaydi, undan qo‘rqmaydi, o‘z orzu-umidlari oldida mag‘rurona kayfiyatda turadi. Ayniqsa, Yaratganga qarata “Bizni bu yerdan hech kim quvib chiqarolmaydi, bu yerda biz ozodmiz” singari aytilgan xitobi mag‘rurlikning bir ko‘rinishidir. “Xayr, muborak o‘lka, Salom dahshatli dunyo” xitobida esa o‘zi duch kelishi mumkin bo‘lgan dahshatlarga to‘la dunyo

³⁸ John Milton «The Paradise Lost of Milton» Book I, Lines 17–33, Milton J. Paradise Lost / Ed. Printed for Henry Washbourne & CO. 25 Ivy Lane, Paternoster Row - London, 2024. – P. 9-10.

qarshisida hech qanday qo‘rqinchlarsiz chiqa oladigan qahramonni ko‘z-o‘ngimizda namoyon etadi.

Uchinchi faslda esa “*Dostonda shakl va mazmun uyg‘unligi*” o‘rganildi. Jon Miltonning “Yo‘qotilgan jannat” (Paradise Lost) dostoni – shakl va mazmun uyg‘unligining eng yuksak namunasidir. Asarda badiiy shakl (ya’ni janr, poetik tuzilma, kompozitsiya, stilistik uslublar) va mazmun (ya’ni diniy-falsafiy g‘oyalar, insoniyat taqdiri, gunoh, najot, iroda erkinligi) o‘zaro chuqur bog‘liq holda, bir-birini to‘ldirib turadi. Shoirning poetik mahorati ham aynan mazmun va shaklning uyg‘unligida kuzatiladi. Mazkur asar yuqorida ta’kid etganimizdek, doston janrida yozilgan bo‘lib, diniy-falsafiy mavzuni qamrab olib, bu mazmun o‘z navbatida badiiy shaklga solingan. Doston antik eposlar shaklini olgan bo‘lsa-da, u protestant dunyoqarashini ifodalaydi. Bu orqali antropologik (insoniyatga oid) va teologik (Xudo bilan bog‘liq) mazmunlar uyg‘un ravishda ochiladi.

Jon Miltonning “Yo‘qotilgan jannat” dostoni jahon adabiyotida yaratilgan boshqa dostonlardan tubdan farq qilib turadi. Bu farqlarni ham shaklda ham mazmunda anglashimiz mumkin. Darhaqiqat, doston o‘n ikkita kitobdan iborat. Har bir kitob yangi syujet asosiga quriladi. Agar jahon dostonchiligiga e’tibor qiladigan bo‘lsak, biror bir doston o‘n ikki kitob tartibi (kompozitsiyasi)ga ega emas. To‘g‘ri, turkiy xalqlar adabiyotining nodir namunasi hisoblangan “Dada Qurqut” dostoni o‘n to‘rtta hikoyani qamrab olgan. Ularni birlashtirib turuvchi obraz Dada Qurqut sanaladi. Har bir hikoya alohida obrazlarga va voqelikka ega. Ushbu voqealar bir-biri bilan bog‘lanmaydi. Biroq Jon Miltonning asarida voqealar bir-biri bilan chambarchas bog‘langan. Obrazlar ham barcha voqealarning ishtirokchisiga aylangan. Shoir an’anaviy dostonlaridagi sayyor syujetdan foydalansa-da, biroq uni to‘liq o‘z mazmunida bermaydi, unga shoirona yondashadi. Shoir san’atkor singari doimiy harakatga ega bo‘lgan syujetni o‘rganadi, takomillashtiradi, o‘zgartiradi. Ya’ni sayyor syujetni takrorlamaydi, bu xususiyat esa asarning o‘ziga xos uslubda yaratilganligidan dalolat beradi. Adabiyotshunos V.V.Temoxin to‘g‘ri ta’kidlaganidek, poetik tomondan o‘quvchiga hissiy va estetik ta’sir o‘tkazish uchun ham obrazlarning jozibasiga ahamiyat qaratish lozim³⁹. Aynan badiiylik, oddiy matnni badiiy matnga aylantiradi, unga sirli joziba baxshida etadi. Badiiylik nafaqat shakl bilan bog‘liq hodisa, balki mazmunga chuqurroq yondashishni yuzaga chiqaruvchi omildir. Doston mazmuni hikoya qilish asosiga quriladi. Bu haqda adabiyotshunos Sh.Hasanov quyidagi ma’lumotlarni beradi: “Mumtoz og‘zaki va yozma dostonchilik muayyan davr hayotini xarakterlar faoliyati, hatti-harakatlarini hikoya qilish usuli asosiga qurilgan. Mumtoz dostonchilikda ham, yangi davr dostonchiligining ko‘pgina namunalarida ham muallif “kadr ortida” turadi, voqealar tizimiga aralashmaydi, u faqat hikoya qiluvchi vazifasini bajaradi, xolos”⁴⁰. “Kadr orti”dagi muallif barcha voqealarni kuzatishi natijasida har bir voqelikka sayqal bera boshlaydi. Mazmuni boyitadi, shaklga moslaydi hamda berilayotgan g‘oyani voqelik asosida o‘quvchiga taqdim etadi. Albatta, Jon Milton

³⁹ Темохин В.В. Поэтика средневекового героического эпоса: Повтор, антитеза, тропы. Диссер. док. фил. наук. – М., 2000. – С. 440.

⁴⁰ Hasanov Sh. Hozirgi o‘zbek dostoni poetikasi. – Samarqand: SamDU nashri, 2011. – 49-b.

ham bundan mustasno emas. Shoir doston mazmunini shaklga moslar ekan, avvalo yunon va rim falsafasini chuqur o‘rganadi. Platon, Aristotel, Seneka falsafasi bilan tanishadi. Bu kabi o‘rganishlar unga stoitsizm (sabr-toqat, iroda), neoplatonizm (ruhiy mukammallik) g‘oyalarini “Yo‘qotilgan jannat” asarida diniy dunyoqarash bilan uyg‘unlashtirishga yordam beradi. Bu orqali u “inson – tan va ruh uyg‘unligidir”, deb hisoblaydi hamda insonning asosiy vazifasi – Yaratganga xizmat qilish ekanini ko‘rsatadi.

Dostonda har bir makon keng tasviriy sahnaga ega. Xoh do‘zax manzarasi, xoh osmon va jannatdagi nurli tasvirlar, xoh inson tanasi va tabiatning go‘zalligi, xoh Iblisning haybatli qiyofasi bo‘lsin bularning barchasida shoirning barokko uslubidan foydalanganligi va estetik dididan dalolat beradi. Bu esa o‘z navbatida sayyor syujetni yangi mazmun bilan to‘yintirganidan guvohlik beradi. Har bir makon ruhiy tovlanishlarni berishda asosiy vazifani o‘taydi. Shu o‘rinda Jahannam makoniga nazar tashlaymiz: *...Beyond this flood a frozen continent// Lies dark and wild, beat with perpetual storms// Of whirlwind and dire hail; which on firm land// Thaws not, but gathers heap, and ruin seems// Of ancient pile; all else deep snow and ice,// A gulf profound as that Serbonian bog// Betwixt Damiat and Mount Casius old,// Where armies whole have sunk: the parching air// Burns froze, and cold performs the effect of fire.// Thither by harpy-footed Furies haled,// At certain revolutions all the damned// Are brought: and feel by turns the bitter change// Of fierce extremes, extremes by change more fierce,// From beds of raging fire to starve in ice// Their soft ethereal warmth, and there to pine// Immovable, infixed, and frozen round// Periods of time, thence hurried back to fire:// They ferry over this Lethean sound// Both to and fro, their sorrow to augment,// And wish and struggle, as they pass, to reach// The tempting stream, with one small drop to lose// In sweet forgetfulness all pain and woe,// All in one moment, and so near the brink,// But fate withstands, and to oppose the attempt// Medusa with Gorgonian terror guards// The ford, and of itself the water flies// All taste of living wight, as once it fled// The lip of Tantalus.*⁴¹

Muallif Jahannam makonini bir qancha rakurslarda tasvirlashga muvaffaq bo‘lgan. Shunday tasvirlardan biri sifatida dara va qoyalalar, jarlik kabi xronotopda anglashimiz mumkin bo‘ladi. Xronotopning asosiy o‘lchovi sifatida uning haroratiga to‘xtaladi. Bu makon Serbon va Qosiy tog‘i o‘rtasida joylashgan bo‘lib, uni shoir Damiat deb ataydi. Damiatdagi harorat o‘ta past darajada ekanligi, daralar tubsiz qorlar bilan qoplanganligi, muzliklardan iborat ekanligi xususida so‘z yuritilib, bu jarlikka ko‘plab qo‘shinlar cho‘ktirilganligi, sovuqlik suyaklarni sindirish darajasida ekanligi, gunohkorlar shu yerda jazolanishi tasvirini beradi. Jazoni yanada og‘irlashtirish uchun Friyalar jalb etiladi va ular o‘zlarining harpi tirnoqlarini odam tanasiga kiritadi, natijada tanaga kirgan tirnoqlar cho‘g‘dek tanani kuydira boshlaydi, dahshatli og‘riqdan inson hushini yo‘qotadi. Ularni o‘ziga keltirish uchun olovdan muzga, muzdan olovga tashlaydilar. Tana kuydirilganda bir tomchi suvni axtara boshlashadi, biroq suvni quriqlayotgan Miduza Gargonalar esa ularga yo‘l berishmaydi, ular eng xavfli hududni

⁴¹ John Milton «The Paradise Lost of Milton»Book I, Lines 17-33, Milton J. Paradise Lost / Ed. Printed for Henry Washbourne&CO.25 Ivy Lane, Paternoster Row -London, 2024. – P. 49-50.

qo'riqlashadi. Damiata makonidagi tasvirda gunohkorlarning jazolanishi borasidagi qarashlarini mifologik obrazlar bilan omuxtalashtirgan holda beradi. Bizga ma'lumki, yunon mifologiyasida o'rin egallagan Miduza Gargona obrazi eng yorqin obrazlardan biri bo'lib, u bir nazar bilan inson tanasini toshga aylantira oladi. Shoir esa mana shu obrazni Jahannam makoni bilan bog'laydi va uni qo'riqchi sifatida talqin etadi. Muallif tomonidan juda keng makon tasviri berilgan bo'lib, unda gunohkorlar hushini yo'qotganda muzliklarga olib kelinishi, o'ziga kelganda esa yana qaytarilib Jahannam alangasiga tashlanishi borasidagi tasvirlar o'quvchini umrining sarhisobini olishga da'vat etadi. Yuqoridagi tasvirlardan ma'lum bo'ladiki, Jon Milton dostonga oddiy tasvirni bermaydi, balki uni mifologiya bilan chambarchas holatda berib, mazmuni yanada boyitadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**Abdulla Oripov hamda Nazar Eshonqul ijodida diniy-falsafiy qarashlar ifodasi**" deya nomlangan bo'lib, mazkur bob ham uch fasldan iborat. Birinchi faslda "*Taqiq mevasi*" hamda "*Odam va Shayton*" qissasining g'oyaviy-badiiy yo'nalishi" tadqiq etildi. Nazar Eshonqul ijodining asosiy qirralaridan biri – bu diniy-falsafiy mazmunning teran va badiiy ifodasidir. Yozuvchi asarlarida inson va uning ruhiy olami, haqiqat va yolg'on, axloq va e'tiqod, vaqt va abadiyat kabi fundamental masalalarni yoritadi. U diniy-falsafiy g'oyalarni faqat nazariy tarzda emas, balki hayotiy misollar, badiiy obrazlar orqali ifodalab, zamonaviy o'quvchini tafakkurga chorlaydi. Bu kabi xususiyat ayniqsa uning "Taqiq mevasi" romanida o'z ifodasini topadi. Asar o'zining falsafiy mazmuni, badiiy talqini va diniy ramzlar bilan boyitilgan g'oyaviy yo'nalishi bilan ajralib turadi. Romanda adib o'zining falsafiy teranlikka boy qarashlari bilan o'quvchi e'tiborini tortadi. Asarda hayotning mazmun-mohiyati, insoniylik, e'tiqod, axloqiy qadriyatlar, ma'naviy inqiroz singari dolzarb mavzular chuqur yoritiladi. "Taqiq mevasi" asari nomidanoq diniy-falsafiy ramzlarni o'z ichiga olganini sezish mumkin. Zabur, Tavrot, Injil va Qur'on rivoyatlarida "taqiqlangan meva" – bu Odam Ato va Momo Havo jannatdan quvib chiqarilishiga sabab bo'lgan meva ramzidir. Nazar Eshonqul ushbu diniy arxetip orqali insoniyatning yerdagi hayoti, tanlov, nafs, gunoh va haqiqat yo'lidagi kurashni ramziy tarzda ochib beradi. Bizningcha, mazkur roman Momo Havo arxetipi uchun yaratilgan hissiyotlar hosilasidir. Nazar Eshonqul mifologiya asosida asarni yaratishga harakat qiladi va taqiq mevasi sifatida olmani tanlaydi. Biroq adib diniy qarashlardan chetga chiqmaydi. Ko'proq Injilga murojaat etish va undagi syujet liniyalarini zamonaviy ko'rinishida berishga harakat qiladi. Asarda insonning erkinlik va cheklovlar o'rtasidagi ichki kurashi, taqdir va iroda, tafakkur va e'tiqod orasidagi zidliklar falsafiy mushohada ruhida yoritiladi. "Taqiq mevasi" – bu faqatgina diniy obraz emas, balki har bir zamonaviy inson oldida turgan axloqiy, ijtimoiy va ruhiy sinovlar timsolidir.

Nazar Eshonqul "Taqiq mevasi"ni O.ning Havo xususidagi mushodalari bilan boshlaydi. Bundan ayonlashadiki, adib birinchi planga O. obrazini emas, balki Havoning jahon tarixidagi o'rnini ko'rsatishdagi harakatida anglaymiz. Jon Miltonning "Yo'qotilgan jannat" asariga e'tibor qaratsak, unda shoir syujet liniyasini mifologiyadan boshlab, keyin Iblis obrazini yaratishga va uning xususiyatlarini bildirishga intiladi. Shu o'rinda har ikki adibning syujet liniyasidagi

yaqinlik kuzatiladi. Jon Milton o‘z asarida oshkora tasvir orqali syujetni tashkil etgan bo‘lsa, Nazar Eshonqul sirli mistik xususiyatga ega bo‘lgan yopiq syujetni beradi. Biroq asosiy e‘tiborini aynan Havoga qaratadi. Aslida, taqiq mevasini birinchi tatib ko‘rgan va Odam Atoga taklif etgan ham Havodir. Biroq adib Havo obrazini mifologik nuqtayi nazar yoki diniy nuqtayi nazar orqali taqdim etmaydi, balki zamonaviy qiyofani unga mengzaydiki, natijada Havo dunyo tarixida har xil ko‘rinish kasb etadi. Adib dunyoni teatr timsolida kashf etadi. Bu teatr sahnasida esa “Jannatdan quvilish” premyerasi asosiy voqeaga aylanib ulgurgan. Havo esa bu pyesada “Quvg‘indagi malika”ga aylanib ulgurgan. Adib jahon tarixini mana shunday tasavvur etadi. Pyesaning rejissyori esa Ma‘bud. Havo sabab taqiq mevasi qo‘lga olinadi va uni Odam Ato bilan baham ko‘rishga kirishadi. Biroq mazkur romanda asosiy qahramon sifatida faqat Havoni kuzatamiz. Chunki asarda: *“Havo bu maqomga chiqqunicha qancha musibatni boshdan kechirmadi – u bu marraga kelguncha yo‘qotganlari topganlaridan ko‘p bo‘ldi, ammo yoshligidan uning aqlini olgan sahna uchun qurbonlik yo‘lidan qaytmadi”*⁴². Darhaqiqat, Havo taqiq mevasini iste‘mol qilishi va qurbon bo‘lishi lozim edi. Bu qurbonlik insoniyatning tarixi bilan bog‘lanishi va yana oqibat uning qurbonligi insoniyatning tanazzulini keltirib chiqarishi lozim edi. Adib nigohida mana shu falsafiy qarash asosiy o‘rinni egallaydi. Shu bois ham yozuvchi Havoni goh joriya, goh malika, goh yengiltak ayol, goh rohiba, goh faqir ayol, goh uy bekasi, goh g‘am-g‘ussa ma‘budasi, goh mahkumlikka isyoni bo‘lgan ayol rakurslarida bo‘y ko‘rsata boshlaydi. Biz Havoni tarix zarvaraqlarida mana shu ko‘rinishda anglay boshlaymiz. Yozuvchi Havo obrazining rakurslari orqali ayollar tarixi bilan tanishtira boshlaydi. Nazar Eshonqul ham mana shu tarix sahnasidagi obrazlarni birlashtirishga harakat qiladi. Uning bu sa‘yi-harakati Injil zarvaraqlarida joy olgan qarashlar bilan oziqlantiriladi. Shu bilan bir qatorda unga zamonaviy libos taqdim etadi. Havo obrazning zamonaviy ideali sifatida ikki ijodkor ayolni asarga kiritadi. Bular – Farug‘ Farruxzod va Frida Kalo. Farug‘ Farruxzod eron adabiyotida o‘z ovozigga ega bo‘lgan adibalardan biri. U “Gunoh qildim, to‘liq lazzat gunohi”⁴³ she‘rini yaratadi. Natijada bu she‘r oilaviy mojaroga sabab bo‘lib, turmushidan ajraydi. Adib mana shu she‘rni Havo ruhiyati va uning hissiyotlari bilan bog‘laydi. Havoning maktab sahnasida Layli obrazini ijro etishi, shu bois otasi uni qattiq jazolashi va alal oqibat onasi va uni uydan haydab chiqarishi bu obrazni Farug‘ Farruxzodga yaqinlashtirsa, “Men o‘z suratimni chizaman, chunki ko‘p vaqtimni yolg‘iz o‘tkazganim uchun men eng yaxshi bilgan mavzu – o‘zimman”⁴⁴ kabi qarashlar uni Frida Kaloga yaqinlashtiradi. Mana shu ikki ideal asosida Havo qiyofasi, uning ruhiyati, intilishi, orzu va armonlarini berishga muvaffaq bo‘ladi.

Nazar Eshonqulning “Taqiq mevasi” asarida uchta obraz: Havo, Hosila, Malak asosiy pozitsiyani egallagan. Bu uchlikning birortasi ilohiy ne‘matga intilmaydi. Bu esa o‘z navbatida bizga K.Armstrong o‘z tadqiqotida keltirgan uchlikni yodga soladi. Unda aytilishicha, G‘arb olimlari qadimgi arablar tarixini o‘rganish jarayonida ularda o‘rtasida yuzaga kelgan bo‘linishning boshlanishiga

⁴² Эшонқул Н. Сайланма II. – Тошкент: Akademnashr, 2022. – Б. 284.

⁴³ https://uz.wikipedia.org/wiki/Furo%CA%BBg%CA%BB_Farruxzod(14.05.2025)

⁴⁴ <https://tarix.sinaps.uz/hodisa/frida-kalo/> (14.05.2025)

e'tibor qaratishadi. Bu bo'linish Salmon Rushning fojiali asari bilan bog'lanadi. Bo'linish ma'budalarga e'tiqod borasidagi qarashlar bilan bog'liq. Hijoz arablari uchta ma'budalarga alohida muhabbat bilan qarashgan: al-Lat (uning ismi shunchaki Ma'buda atamasini anglatgan), Al-Uzza (qudratli) va Manat (omadli taqdir). Ushbu ma'budalarning muqaddas joylari Toifda, Naklah (Makka janubi-sharqida) va Kudaida joylashgan (qizil dengiz sohili). Ko'pincha ularni oddiygina Banat al-Lahh, "Xudoning qizlari" yoki "taqdir qizlari" deya nomlashgan. Bu tushuncha xalq orasida baxtsizlikni yoki baxtsiz hodisalarni anglatgan. Ularga atab haykalchalar o'rnatishadi. Bu haykalchalar katta toshlardan iborat edi. Qadimgi Arab xalqi ularga sig'inishar, ularni davolash xususiyatiga ega deb bilishar edi⁴⁵. Bizningcha, Nazar Eshonqul romanida mana shu uchlikka alohida ahamiyat qaratgan. Shu bois ham Havo, Hosila, Malakda ham taqdirning sinovi oldidagi o'zlik kuzatiladi. Ular qurbonlik sifatida asarda tasvirlanadi.

Abdulla Oripovning "Odam va shayton" qissasi (birinchi bobda ta'kid etganimizdek) Fariduddin Attor ta'sirida yuzaga kelgan. Asar Odam va shaytonning azaliy dushmanligi borasidagi qarashlar bilan talqin etiladi. Unda Odam va shayton o'rtasidagi ichki va tashqi kurash xususida so'z yuritiladi. Bu kurash iymon-axloq, gunoh va tavba masalalarini markazida o'z ifodasini topadi. Biz mazkur asarni alegorik qissa deb atashimiz mumkin. Qissadagi asosiy voqea insonning (Odam Ato va Momo Havo) hayotidagi tanlovlar, joziba va vasvasalar orqali ifodalanadi: *Alloh mendan yuz o'girdi, na osmon, na yemasman, // Bilgil, Inson, bilgil, Odam, senga salom bermasman! // Yo'ldan urdim seni mudom, azob berdim joningga, // Men g'alaba qildim oxir, kirdim endi qoningga. // Koinotga sukut cho'kdi, pirliradi yulduzlar, // Shundan beri o'tdi qancha, yillar, kecha-kunduzlar. // Ko'rdik qancha shaytonlikni, qancha Shayton Insonni // Chiqarolmay ovvoramiz, qonimizdan Shaytonni.*⁴⁶

Abdulla Oripov mazkur qissasida inson botinidagi Shayton bilan xulosalaydi. Demak, Shayton faqat tashqi dushman emas, balki ichki bo'shliq, xohish va uxlab qolgan ma'naviyat timsoli sifatida ko'rsatiladi. A.Oripov an'anaviy diniy mavzuni zamonaviy badiiy tilda qayta ishlaydi. Natijada unga o'ziga xos ohang, o'ziga xos joziba baxshida etadi. Shoir yaratgan she'riy qissa insonning erkin irodasi hamda uning tanlovi borasidagi qarashlar orqali tajalli topgan. Ushbu she'riy qissada aynan odamning harakatlari uning erkin tanloviga bog'langan, gunoh va yaxshilik tanlovining og'irligi doimiy ravishda ta'kidlanadi. Asardagi Shayton tashqi dushman bo'libgina qolmay, ichki vasvasa, ichki shubha va jaholat timsoli. Adib esa mazkur tushunchani qonda oqayotgan Shayton vasvasasi bilan bog'lab yuboradi. Natijada unda tavba va qutqarilish imkoniyati yo'qoladi. Albatta, bu Shaytonning to'liq g'alabasi ifodasidir. Asosiysi, eng chuqur adovat va xato ham insonning o'ziga qaytishi, o'zini tuzatishi orqali hal bo'lishi mumkin. Shu bois ham shoir qissa so'ngida ichki jarayondagi Shayton bilan kurashish tafsilotini berib o'tadi. Bu masalaning bir tomoni bo'lsa, ikkinchi tomoni shaxsiy gunoh va uning ijtimoiy oqibatlari, jamiyatda axloqiy buzilishning qanday namoyon bo'lishi

⁴⁵ Армстронг К. История бога: тысячелетние искания в иудаизме, христианстве и исламе. – М.: София, 2004. – С.106.

⁴⁶ Абдулла Орипов. Танланган асарлар. 6 жилд. – Тошкент: Шарк, 2010. – 38-б.

borasidagi qarashlarga borib taqaladi. Bizningcha, muallif ijobiy va salbiy tushunchalarni bir shaxs ichida birlashtiradi va dualizmni inkor etadi. Odam Ato qissada protagonist sifatida talqin etilgan. Odam Ato qissada oddiy inson timsoli bo'lsa-da, uning harakatlari orqali inson tabiati, zaiflik va iroda ko'rsatiladi. Uning ruhiyati, ruhiyatidagi qarama-qarshiliklar natijasida uning zaif tomoni old planga o'tib jaholatga bo'ysunadi va shu yo'l orqali azaliy dushmani ustidan g'alaba qozonishiga ishonadi. Aslida jaholat hech bir davrda g'alaba qozona olmaganligi va u faqat mag'lubiyat totini tatishi asarning asosiy g'oyasiga aylangan.

Ikkinchi faslda **“Roman hamda qissa syujeti va uning o'ziga xos xususiyatlari”**ga e'tibor qaratildi. Nazar Eshonqulning “Taqiq mevasi” romani zamonaviy roman janrining innovatsion ko'rinishlaridan biri bo'lib, an'anaviy syujetdan voz kechilgan, o'quvchini tafakkurga undovchi murakkab qatlamli badiiy asardir. Roman ilk bor 2019-yilda chop etilgan bo'lib, falsafiy-teran mazmuni, ruhiy-ijtimoiy muammolarni qamrab olganligi bilan ajralib turadi. Asarning nomi – “Taqiq mevasi” – muqaddas kitoblarda eslatilgan jinoyat va gunoh, tushunish va bilish, yo'l tanlash timsollarini o'zida mujassamlashtiradi.

Roman (adib o'zi ta'kidlaganidek) ikki novella (Havo va Malak)dan iborat. Romanda keltirilgan novellalarda o'tkir dramatik vaziyatlar yuzaga kelmagan. Yoki tavsifiylik ustun bo'lib, psixologik tasvirlarga boy. Biroq asarda obrazlar uchdan ortiq emas, unda yakuniy xulosa o'quvchi ixtiyoriga qoldirilgan. Shu bilan bir qatorda roman mifologiya, tush, mistika unsurlari bilan boyitilgan.

“Taqiq mevasi”da Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonidan olingan *“Bu tift iligiga bir varaq ber, // Lekin manga ishqdin sabaq ber!”* misrasi bilan boshlanadigan epigrafga duch kelamiz. Romanda keltirilgan epigraf voqealar rivoji, motiv haqidagi ma'lumotlarni taqdim etib ulguradi. Natijada asar ishq-muhabbat bobi asosiga qurilganligiga amin bo'lamiz. Aynan mana shu epigraf asar kontekstini ochib bera olgan hamda romanga ma'no baxsh etgan. Adib adabiy epigrafdan foydalanishi natijasida o'quvchiga hissiy va g'oyaviy yo'nalishni ko'rsatib beradi. Bu yo'nalish o'z navbatida muallif dunyoqarashini tushunishimizga yordam beribgina qolmay, asarda keltirilgan voqelikka tayyorlaydi. Birinchi novella “Havo” deya nomlanib, uch asosiy obrazga duch kelamiz. Bular: Men (keyingi o'rinlarda roviy deb ataymiz), Havo va Ma'bud. Bu obrazlar ishtirok etgan syujetda kutilmagan burilish nuqtasi (wendepunkt) mavjud emas. Adib syujetni hikoya syujetidek birma-bir ong tasavvurida rivojlantirib, kulminatsion nuqtaga olib boradi. Biroq yechimini o'quvchining o'ziga qoldiradi. Muallif ekspozitsiyani peyzaj sahnasida berishga muvaffaq bo'ladi va bu sahna bola tilidan tasavvur etiladi: *“Aynan shu joyga kelganda hammasi boshqatdan boshlanardi: yana qayta farishtalarning ham so'lagini oqizadigan darajada mevalarni g'arq pishgan daraxt yonida turgan ayolni, unga meva uzib berayotgan qop-qora sharpani qayta-qayta tasavvur qilar, bu manzaraning suratini o'zimcha chizardim”*⁴⁷. “Taqiq mevasi” romanining syujeti an'anaviy voqealar zanjiri asosida emas, balki inson ongidagi ichki iztirob, ruhiy kurash, diniy-falsafiy qarama-qarshiliklar orqali shakllanadi. Shu bois ham “aynan o'sha joyga kelganda” syujet

⁴⁷ Эшонқул Н. Сайланма II. – Тошкент: Akademnashr, 2022. – Б. 279.

qaytadan boshlanadi. Asarning boshlang'ich ya'ni ekspozitsiya qismidayoq psixologik vaziyat, qahramonning ichki holati keskin tafakkuriy ziddiyatlar bilan to'la ekanligidan guvohlik beradi. Bu holatni ichki voqealar zanjirida ham kuzatamiz. Bu zanjir syujet davomida qahramonlar hayotidagi real voqealardan ko'ra, ularning ongida kechayotgan falsafiy izlanishlar muhim o'rin egallaydi. Asar ko'proq ong oqimi orqali rivojlanadi.

Adib roviy tilidan foydalanadi va asar to'liq uning tasavvurlari va taxayullari asosiga quriladi. Voqealarni bayon qilayotgan obraz kim yoki qaysi sohada ishlashi ma'lum va muhim emas. U asarda goh bola, goh yosh yigit sifatida tasavvur uyg'otadi. Biroq asarda rasm chizishga qiziqishi va teatr bilan bog'liq sahnalarda fon yaratishini inobatga oladigan bo'lsak, dekorativ ishlar bilan shug'ullanuvchi qahramonga duch kelamiz: *“Bolalagimda rasm chizishga qiziqardim. Keyinchalik ham yashirincha chizib yurganman. Ba'zan bugun o'zlarini bu sohaning peshvolari deb ovoza qilayotganlarning suratini ko'rganda g'ashim kelib, qo'limga mo'yqalam olib, chizib qoladigan odatim bor. Shuning uchun ham Havo shu pyesa haqida gapirib berganidan beri men har kuni Ma'bud bilan raqobat qilayotganday eskizlarni chizib, sahnani tasavvur qilaman – qanday bo'lmasin o'sha taqiq olmasi tagiga Havoni olib borgim kelmaydi”*⁴⁸. Mazkur parchadan ma'lum bo'ladiki, Havo pyesada bosh rolni ijro etuvchi aktrisa. Biroq asar boshida biz Ma'bud haqida ma'lumotga ega bo'la olmaymiz. Yoki voqelikni hikoya qilib berayotgan qahramon “Men” haqida ham shunday fikr yuritishimiz mumkin. Demak, ijodkor romanning boshlanish qismidayoq tugunni hosil qiladi. Natijada keyingi voqelikni o'qish zamirida yuqorida qayd etgan qahramonlar bilan tanisha boramiz. Men ya'ni roviy o'z eskizini daraxt detali fonida tasvirlaydi. Daraxt yonidagi Havo, uni u yerga olib borayotgan qora sharpa. Tasvirda qora sharpa har doim ko'lanka aksini olganligi va biror aktyor qiyofasida yaralmaganligi bois uni qiyofasiz chizadi va o'z tasvirlaridan qoniqmasligi natijasi o'laroq har doim uni yirtib tashlayveradi. Muallif romanda eskizlarni yirtish sabablarini ham ko'rsatib o'tadi. Aslida tasvirni tayyorlamaslik, uning bo'lishi lozim bo'lgan voqelikka hamda Ma'budning xohish-irodasiga qarshi vaqtni cho'zish, mevaning uzib olinishini bir zumga kechiktirish, o'jarlik hamda isyon edi. Mazkur isyon o'z o'rnida bizga Fyodor Dostoyevskiyning “Jinoyat va jazo”, Albert Kamusning “Begona”, Frans Kafkaning “Jarayon” asarlarini yodga soladi. Ularga hamohang tarzda obraz insonning o'z vijdoniga bergan hisobotiga asoslanadi. Biroq Nazar Eshonqul vijdon oldidagi hisobotni xuddi insoniyat yaratilishi va gunohi haqidagi voqelik bilan bog'lab uni yanada ayonlashtiradi. Natijada roviy o'z tasavvurlari bilan olishadi, ich-ichidan muqarrarlik oldida o'z o'zini his qiladi. Bu esa asar voqelikni emas, voqelik haqidagi tafakkuriy tasvirlarga yo'l ochadi.

Abdulla Oripovning qalamiga mansub bo'lgan “Odam va shayton” qissasi – she'riy qissa hisoblanadi. Bu janr o'zbek adabiyotida keng tarqalgan bo'lib, she'riy shaklda yozilishi va voqea-hodisalar, qahramonlar hayoti, ularning ruhiy dunyosi va taqdiri epik yo'sinda tasvirlanadi. Qissa odatda nasriy janr sanaladi, ammo

⁴⁸ Эшонқул Н. Сайланма II. – Тошкент: Akademnashr, 2022. – Б. 279.

she'riy qissada barcha hikoya qilish, tasvir va dialoglar she'riy bayonda ifodalanadi. Abdulla Oripov tomonidan yaratilgan "Odam va shayton" qissasi ham bundan mustasno emas. Asarda epik hikoya shakli mavjud bo'lib, ammo u she'riy vositalar yordamida tasvir etiladi. Ijodkorning bu kabi yo'l tutishidan asosiy maqsadi qahramon taqdirini ochishda poetik ta'sir kuchini oshirib, voqeani rivoyat qilish orqali ifodalashdir. Asosiysi, mazkur she'riy qissada epiklik (voqeabandlik) va liriklik (hissiyot, badiiy obrazlilik) uyg'unlashgan holda keladi. Albatta, she'riy qissalar dostonlardan farqlanib turadi. Chunki unda voqealar ko'lam jihatidan kichikroq bo'lib, xalqonalikka ham urg'u berilmaydi. "Odam va shayton" qissasining asosiy syujeti "yo'qotilgan jannat"dan so'ng Inson va Shaytonning yerga qulashi va ularning azaliy jangi. Biroq bu jang hayot uchun kurash, kelajakni qo'lga olish va zimdan uni boshqarish hamda insoniyatni toabad jaholatga botirish va shu yo'l orqali "yo'qotilgan jannat"ni tiklashga yo'l qo'ymaslik kabi voqealarga asoslanadi. Qissaning bosh qahramonlari – Odam Ato, Momo Havo, Shayton, Xallos. Qissada ko'p obrazlilik uchramaydi. Asosiy obrazlar Odam Ato va Shayton o'rtasidagi to'qnashuv asosida asarning dinamikasi kuchayib boraveradi. Shayton xarakteridagi quvlik asar mazmunini boyitibgina qolmay, balki asarda o'ziga xos ironiyani ham beradi: *She'r o'qirdi Shayton jo'shib, goh beliga qo'l tirab.// Qushlar to'xtab boqar edi osmonlardan mo'ralab.// Shayton oxir tin oldi-yu dedi Momo Havoga:// -Dengizlarda dur keltirdim, boqing men benavoga.// Tezda qaytib keladirman, ishim bitgan aytarli.// Siz bolamga qarab turing, yarim soat yetarli.// Shayton bir zum g'oyib bo'ldi, labin burib, qanqayib.// Momo Havo qolaberdi, o'tirgancha anqayib.// Xayoliga keltirmasdan, na hiyla, na tuzoqni.// Odam Ato ovdan qaytdi, yetaklab bir buzoqni.*⁴⁹

Adib qahramonlar qiyofasini asar voqeligi bilan bog'lab yuboraveradi. Ayniqsa bu holat Momo Havo obrazida kuzatiladi. Bo'lib o'tayotgan voqealardan o'ziga kela olmagan qahramon, albatta anqayishi tabiiy hol. Shoir mana shu psixologik qiyofada Momo Havoning juda sodda shaxs ekanligini bemalol Shayton turli xil nayranglar bilan xayolini o'g'irlashi mumkinligini ko'rsatib beradi. To'g'ri, Momo Havo juda sodda, biroq anqov emas. Shu bois ham Shayton unga go'zallik borasida madhlar bag'ishlaydi, Momo Havoning xayolotini yig'ishiga va voqelikni real baholashiga yo'l qo'ymaydi. Shaytonning bu quvligi oldida u ojiz. Shu bois ham Odam Atodan do'q-po'pisa eshitadi, hatto o'zining soddadilligidan yig'laydi. Odam Ato esa o'z o'rnida har bir harakati uchun sobitqadam. U Shaytonning quvligini, uning hiyla-yu nayranglarini bilganligi bois Shayton bilan suhbatlashishni ham joiz topmaydi. Shayton ham o'z o'rnida bundan boxabar. Shu bois ham uchinchi bora farzandini kulba yonida qoldiradi. Ularning qarshiligiga imkon qoldirmaydi. Natijada shaytonvachcha qozonda qovrilib, nonushtaga taqdim etiladi. Biz she'riy qissada faqat Odam Atoning ruhiy iztiroblariga duch kelamiz. U yerda qo'nim topishiga asosiy sababchi deb bilgan Shaytonning hiylasini anglashga qodir emas. O'zining boshiga tushgan ko'rguliklarning sababchisi deb bilganligi bois ham undan qutilish imkoniyatini axtaradi. Bu axtarish qozon yasash, o'tin to'plash va luqma sifatida uni hazm qilishni keltirib chiqaradi.

⁴⁹ Абдулла Орипов. Танланган асарлар. 6 жилд. – Тошкент: Шарк, 2010. – 35-б.

To‘g‘ri, Abdulla Oripov voqealarni proza shaklida bayon qilib boraveradi. Biroq Odam Atoning ichki dunyosidagi talotumlar to‘liq lirikaga asoslanadi. Asarni o‘qir ekanmiz, undagi poetik til – jonli tasvir, musiqiylik o‘z komiga torta boshlaydi. Natijada Odam Atoning yana katta bir xatosi ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi.

“Odam va shayton” qissasidagi Shayton – soddalashtirilgan yovuzlik timsoli emas. U insonga takliflar qiluvchi, ularni sinovga soluvchi qahramon. Ko‘pincha metaforik va simvolik ko‘rinishda berilgan. Biroq uning quvligi bois Odam Ato va Momo Havo asl haqiqatni anglay olishmaydi. Har bir epizodik holatlarda ham Shaytonning, ham Odam Atoning ichki holati ochib borilaveradi. Aynan mana shu ketma-ketlikda joylashtirilgan epizodik voqelik Odam Atoning navbatdagi shaytoniy vasvasasi bosqichiga ko‘taradi. Bu bosqichlar esa o‘z navbatida zamonaviy realistik kontekstda tasvirlanishi bilan birgalikda inson irodasi, uning tabiati, ma‘naviy chegarasini ham talqin etadi. Natijada, tanlovning anglashilmagan og‘irligi, paradoks ma‘naviy iztirobni yuzaga chiqaradi. Xullas, Abdulla Oripovning “Odam va shayton” qissasi insoniy kechinmalar asosiga qurilgan bo‘lib, u jamiyat muammosi sifatida talqin etiladi. Asar she‘riy shaklda yozilganligi bois o‘quvchi qalbiga kuchli ta‘sir etadi. Asar voqeabop hikoya va she‘riy san‘atning qo‘shilishi natijasida yuzaga kelgan o‘ziga xos badiiy janrda yaratilganligi bilan kishini maftun etadi.

Uchinchi faslda “*Asarlarda ruhiy holatlar va kechinmalarni ifodalash uslubi*” muammosini yoritishga harakat qildik. Nazar Eshonqulning “Taqiq mevasi”da mimik va pontamimik harakatlar, ovoz diapozoni, monolog, portret va peyzaj, tush, holat va harakat kabi psixologik vositalardan unumli foydalangan. Bu kabi vositalar adibning ruhiy kechinmalarni berishdagi, ichki ziddiyatlarning chuqur ifodalanishidagi, asosan, falsafiy dunyoqarashi va badiiy-estetik qarashlaridagi ijodkor ruhiyati bilan bog‘liq. “Taqiq mevasi”da syujetdan ko‘ra, obrazlarning ichki olami, ularning kechinmalari, hayotga bo‘lgan individual munosabati markaziy o‘rinda turadi. Romanning eng muhim xususiyatlaridan biri – ruhiy holatlarni ong oqimi orqali berishidir. Bu texnika muallifga qahramonlarning o‘y-xayollarini, ichki kurashlarini bevosita ko‘rsatishga imkon beradi. Roviylar (men)ning uzluksiz fikrlari, shubha, istak va qo‘rquv bilan almashib turadigan kechinmalari aynan ichki monologlar vositasida ifodalanadi. Shu bilan birgalikda mimik, pontamimik harakatlardan ham foydalanadiki, bu ham ruhiy kechinmalarni yanada jonliroq va yorqinroq yaratishda yozuvchiga yangi imkoniyatni taqdim etadi. Nazar Eshonqul ham “Taqiq mevasi”da aynan mana shu harakatlardan unumli foydalanganligiga guvoh bo‘lish mumkin. Bu harakat romandagi “Havo” novellasida quyidagicha ifoda etilgan: “*Bu pyesaning sahnalashtirilishi teatr xodimlarini ham birdan jonlantirib yuborgan, shu asarni sahnaga qo‘yishga qaror qilingandan beri ma‘muriyatdan tortib kun uzoqi pashsha qurib o‘tiradigan qorovulgacha, barchaning yuz-ko‘zida o‘zgacha viqor, o‘zgacha salobat, taraddud paydo bo‘lgandi*”⁵⁰. Mazkur parchadagi mimik harakat bir kishiga taalluqli emas, balki barcha teatr xodimlarniki. Aslida mimik harakat

⁵⁰ Эшонқул Н. Сайланма II. – Тошкент: Akademnashr, 2022. – Б. 283.

inson ruhiy holatini ifodalash usuli hisoblanadi va u faqat bir kishiga taalluqli bo'ladi. Nazar Eshonqul esa bu harakatni barchaga tegishli qilib, o'ziga xos ruhiyatni ifodalashga muyassar bo'ladi. To'g'ri, mimika yuz mushaklarining ifodali harakati hisoblanib, insonning ma'yuslik, xursandlik, g'azab, xafalik kabi hissiyotlarini ifodalaydi. Mimika oddiy kishilarda tabiiy tarzda ro'y beradi⁵¹. Yuqoridagi parchada esa mimika salobat, viqor tushunchalari bilan ifoda etilganki, bu tushunchalar ham o'ziga xos ruhiy holatning mimik ko'rinishidir.

Novelladagi Havo mimik va pontamimik harakatlarga boy obraz hisoblanadi. Adib mana shu harakatlar asosida uning faoliyati hamda ruhiy kayfiyatini berishga muvaffaq bo'ladi: *“zalni to'ldirib o'tirgan tomoshabinlarni ko'rganda xuddi mehmonlarga tavoze qilayotgan uy Bekasi kabi ozurda va takallufligi tabassum qilar, shu tabassumi bilanoq butun zalni o'ziga rom etib olardi. U sahnada kimning qiyofasida bo'lmasin menga o'zi haqida, taqdiri, qismati kechmishi va orzuparast ko'ngli haqida gapirayotganday, o'zining dardi holini butun zalga bildirayotganday tuyulardi. Aslida ham shunday edi, uning har bir roli uning tazarrusi, uning arzi holi, sarkash tuyg'uyu kechinmalarining izhori edi”*⁵². Nazar Eshonqul mimik va pontamimik harakatlarni ham jamoa, ham individual shaxsga tegishli qilib beradi. Bu esa adibning mahoratidan dalolat beradi. Romanda barcha voqealar roviy tilidan ifoda etilganligi borasida so'z yuritgan edik. Mana endi ruhiy kechinmalar ifodasida ham roviy nigohini kuzatamiz. Mimik harakat “tabassum”ga qurilgan. Bir tabassum orqali butun tomoshabinni o'ziga jalb qila olish qobiliyatiga ega bo'lgan Havo qiyofasi roviy nigohidagi prizma hisoblanadi. U nafaqat Havoni kuzatadi, balki tomosha zalidan o'rin egallagan tomoshabinni ham kuzatadi. Shu bois ham tomoshabinni jonlanishi, maftunkorligi roviy prizmasidan joy oladi.

Abdulla Oripov “Odam va shayton” qissasida ruhiy holatlar va kechinmalar muallif tomonidan aniq ifodaga ega bo'lib, personajlarning harakatlari va holatlari orqali tasvir etib berilgan. Ayniqsa, ichki kechinmalarining bosqichma-bosqich o'sishi Odam Ato obrazida yaqqol ko'zga tashlanadi: *Osmon qolib zaminda ham yo'liqdi shu baloga, // Tilidagi bor zahrini sochdi Momo Havoga. // Bu o'sha-ku, fitna bilan arshda bizni xor qilgan, // Bu o'sha-ku, ikkimizni toshbaqaga zor qilgan. // Odam Ato shaytonchani la'nat bilan bo'ktirdi, // Oyoq-qo'lin bog'lab so'ngra cho'ng dengizga cho'ktirdi. // Chidash berdi Momo Havo uning barcha doviga, // Tongda turib Odam Ato ketdi yana oviga*⁵³.

Mazkur parchada adib harakat va holat orqali ruhiy kayfiyat va kechinmalarga yo'l ochadi. Shoir ruhiyatni Odam Atoning qalb azobi orqali ifodalaydi. Shu bois ham uning qalbida jannatdan haydalishi tiklab bo'lmas jarohatga aylangan. Asosiy aybdor esa mana endi farzandini Momo Havo qo'lga tutqazib, uning holidan kulayotgandek kayfiyatga tushadi. Bu tuyg'u uni shaytonvachchani shavqatsizlarcha la'natlashdan tashqari dengizga keltirib uni cho'ktiradi. Bu shavqatsizlikni qaysidir ma'noda oqlaymiz ham. Albatta, Momo Havo ham alam chekayotgan Odam Ato g'azabidan benasib qolmaydi. Natijada, uning ruhiyati bu

⁵¹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Mimika> (13.07.2025)

⁵² Эшонкул Н. Сайланма II. – Тошкент: Akademnashr, 2022. – Б. 284.

⁵³ Абдулла Орипов. Танланган асарлар. 6 жилд. – Тошкент: Шарк, 2010. – 34-б.

g‘azab oldida chidashdan boshqa iloj topa olmaydi. Odam Atoning tongda turib ovga ketishi esa hanuzgacha uning ruhiyatidagi evrilishdan dalolat beradi. Odam Atoning butun kayfiyati muallif tomonidan tasvirlab berilaveradi. Bu esa asar o‘qishligiga xizmat qilgan. Darhaqiqat, asar juda tez, shu bilan birga zavq bilan o‘qiladi. Har bir obraz asarda ma’lum ruhiy olam orqali ochib berilaveradi.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi “**J.Milton, A.Oripov, N.Eshonqul asarlarining til xususiyatlari**” deya nomlandi. Bu bob ham uch fasldan iborat bo‘lib, birinchi faslda “*Asarlarda “muallif men”i, qahramon, personaj, roviy nutqi*” tadqiq etildi. Jon Milton “Yo‘qotilgan jannat” dostonida poetik jihatdan yuksak mahorat ko‘rsata olgan ijodkoridir. U nafaqat kompozitsiyaga, yoki syujetga, balki til xususiyatlariga ham alohida ahamiyat qaratdi. Ayniqsa, dostonidagi muallif nutqi hamda muallif “men”ini alohida ta’kidlash joiz sanaladi. Chunki ijodkor shaxsiy-biografik “men”i bilan badiiy-narrativ “men” o‘rtasidagi murakkab aloqani yaratadi. Bu kabi holatni adabiyotshunos Yu.Boreyev “badiiy asarni ijodkor shaxsi orqali o‘qish uslubi”⁵⁴ deb qarasa, B.Karimov esa “San’atkorning individual taqdiri uning ijodini talqin etishda kalit vazifasini o‘taydi”⁵⁵ deb hisoblaydi.

Jon Milton Gomer va Vergiliydagi an’anani “men” talqinida ham davom ettiradi. U an’analarga sodiq qolgan holda ilhom so‘rayotgan, mavzuni yo‘lga soluvchi narrator desak xato bo‘lmaydi. Chunki u an’anani davom ettirish bilan bir qatorda uni xristianlashtiradi. U oddiygina muzalarga ilhom so‘rab murojaat etmaydi. Balki Yagona Tangriga e’tiqod qilgan holda undan ilhomini jo‘sh urishini so‘raydi. U “*Heavenly Muse/ Holy Spirit*”ga murojaat qiladi va o‘z badiiy missiyasini “Xudoning yo‘llarini odamlarga oqlash” vazifasi bilan bog‘laydi. Demak, uning “men”i nafaqat hikoyachi, balki teolog va o‘qituvchi hamda tarixchidir.

“Yo‘qotilgan jannat” asarining o‘n ikki kitobida ham voqealar bayoni (proemlar) mavjud bo‘lib, kitobda nima haqida so‘z yuritilayotganidan darak beradi. Xuddi shu o‘rinda biz muallif “men”iga duch kelamiz. Birinchi kitobda adib Yaratganga murojaat etadi. O‘zining “men”i orqali ilhom so‘rabgina qolmay “*Illumine the gloom that veils my spirit, with beams divine.*” kabi iboralar bilan o‘zining insoniy cheklanganligini e’tirof etadi. Bu ibora uch xil talqinga ega. Birinchi talqinda biz personifikasiyalangan tushunchani anglay boshlaymiz. Aslida hayotda Jon Milton ko‘zi ojizligidan aziyat chekkan. Bu aziyat asarda o‘z ifodasini topgan bo‘lib, ko‘zining nurini tiklash va yolvorish sifatida anglashiladi. Ikkinchi talqinda esa biqiq hayotdan aziyat chekkan inson, hayotda ro‘shnolik va kelajagining yorug‘ bo‘lishini istaydi. Natijada ikkinchi talqinda shunday insonning Yaratganga murojaati kuzatiladi. Uchinchi talqinda esa o‘ziga va asariga Yaratgandan oydin yo‘lni tilaydi. Bu tilak “mangu provdentsiyani tasdiqlash” va “Xudoning yo‘lini oqlash”ni ko‘rsatadi. Bu talqin asarda teodik dastur bo‘lib xizmat qiladi.

Jon Milton muallif “men”i orqali siyosiy-axloqiy rezonansni berishga ham muvaffaq bo‘lgan. Doston bevosita siyosiy pamflet emas, ammo “men”ning

⁵⁴ Borev, Y. B. *Estetika*. – Moscow: “AST”, 2019. – Б 220

⁵⁵ Каримов Б. Абдулла Қодирий феномени. – Тошкент, “Info capital group”, 2019. – Б. 167.

ohangida ozodlik, vijdon erkinligi singari qarashlar o‘rin egallagan. Bu, ayniqsa, Iblisning “erkinlik”ni soxta talqin qilishiga qarshi turishda va Inson qulashining axloqiy talqinida seziladi. Ayniqsa, Iblis xarakter xususiyati, uning ruhiyati portret orqali inkishof etilishida ham muallif “men”ining o‘rni beqiyos. Ijodkor ozodlik uchun kurashgan Iblis qiyofasini ataylab so‘ndirmaydi, bu bilan ozodlikka tashnalik so‘nishi mumkin emasligini isbotlashga harakat qiladi. Uning mimikasida pushayponlik balqisa-da, biroq erk, ozodlik uchun kurash uni har doim olg‘a qadam bosishga undaydi. Yuqorida talqin etganimizdek, aslida Jon Milton Iblis qiyofasida inson erkini qo‘yadi. Shu yo‘l orqali rassom sifatida erkka tashna bo‘lgan Iblis qiyofasini beradi: *“He above the rest// In shape and gesture proudly eminent// Stood like a tower; his form had not yet lost// All her original brightness, nor appear’d// Less than Archangel ruin’d, and the excess// Of glory obscur’d: as when the sun new-risen// Looks through the horizontal misty air// Shorn of his beams, or from behind the moon,// In dim eclipse, disastrous twilight sheds// On half the nations, and with fear of change// Perplexes monarchs. Darken’d so, yet shone// Above them all th’ Archangel: but his face// Deep scars of thunder had intrench’d, and care// Sat on his faded cheek, but under brows// Of dauntless courage, and considerate pride// Waiting revenge. Cruel his eye, but cast// Signs of remorse and passion to behold// The fellows of his crime, the followers rather—// (Far other once beheld in bliss)—condemn’d// For ever now to have their lot in pain...”*⁵⁶

Nazar Eshonqulning “Taqiq mevasi” asarida biz umuman muallif “men”iga duch kelmaymiz. Aslida ijodkor muallif “men”ini qo‘llamay, qahramon-roviyni asarga olib chiqadi. Har bir voqea, bo‘lib o‘tayotgan jarayon, tarix, tush, tasvir bularning barchasi roviy prizmasi orqali taqdim etiladi. Bu esa Jon Milton asaridan farqlanuvchi xususiyat sifatida aks etgan. Bu roviy asarda faol tasvirlovchi va hikoya qiluvchi subyekt sifatida ishtirok etadi. U voqelikni tavsiflash bilan bir qatorda, uni baholab boradi: *“Ayni daqiqalarda Sh. menga hayrat bilan tikilarmidi yoki nafrat bilanmi, bilolmasdim. Uning yonib turgan ko‘zlari xuddi qabr ichida yonib turgan shamga o‘xshab menda noxush taassurot uyg‘otdi. U shu qarashlari bilan birdan menga begona, yot bo‘lib qolgandek edi.*

*U Malakka bo‘lgan muhabbatimni eshitib, negadir o‘y bo‘lib o‘yga, g‘am bo‘lib g‘amga, iztirob bo‘lib iztirobga o‘xshamaydigan anduhga berilganча menga xuddi rentgen nurlariga o‘xshaydigan ko‘zlarini tikib turardi: go‘yo shu qarashi bilan mening ichimni birma-bir varaqlab, aytganlarimning hammasiga o‘zi guvoh bo‘lmoqchi, mening hissiyotlarim, kechinmalarim, tuyg‘ularimni birma-bir titib ko‘rmoqchiga o‘xshardi. Nihoyat tikilishni bas qilib, meni ajablantirganча tashvishli alfozda xona bo‘ylab yura boshladi”*⁵⁷. Yozuvchi O.ni subyekt sifatida berib, u orqali voqelikni hikoya qila boshlaydi. Bu hikoyada O. nafaqat hikoyachi, balki voqelikni faol tasvirlovchisi va ishtirokchisidir. U tasvirlarni o‘zining qalb prizmasidan o‘tkazib, tinglovchining ruhiyatini, o‘zini tutishini, yuzida sodir bo‘layotgan mimik harakatlarni baholab ham boradi.

⁵⁶ John Milton «The Paradise Lost of Milton» Book I, Lines 589–610, Milton J. Paradise Lost / Ed. Printed for Henry Washbourne&CO, 25 Ivy Lane, Paternoster Row -London, 2024. – 21-22 p.

⁵⁷ Эшонқул Н. Сайланма II. – Тошкент: Akademyashr, 2022. – Б. 353.

Abdulla Oripov ham Nazar Eshonqul singari roviy nutqidan keng foydalanadi. Asarda muallif pozitsiyasi, rivoyat uslubi va qahramonlar nutqi orqali insoniyat mohiyatiga, ezgulik va yovuzlik, iymon va gunoh, iroda va sinov masalalari xususida so‘z yuritadi. Shoir “Odam va shayton” qissasi orqali nafaqat diniy rivoyatni poetik shaklda qayta talqin qiladi, balki unda insonning ma’naviy mohiyatini, tanlov erkinligi va gunoh bilan ezgulik o‘rtasidagi abadiy kurashni falsafiy darajada ochib beradi. Qissaning badiiy tuzilishida muallif “men”i, roviy, hamda personajlar nutqi o‘zaro uyg‘unlashib, asarning g‘oyaviy qatlamlarini yanada chuqurlashtiradi. “Odam va shayton”da muallif “men”i voqealar rivojida faol falsafiy mushohadakor sifatida namoyon bo‘ladi. Oripov muallif sifatida nafaqat rivoyatchi, balki insoniyat taqdiriga daxldor fikr yurituvchi “ichki ovoz” rolini bajaradi. U o‘quvchini Odam Ato timsolida butun insoniyat vakili sifatida idrok etishga chorlaydi. Qissada muallif “men”i ko‘pincha axloqiy mezonni belgilaydi, unda Alloh, Odam va shayton o‘rtasidagi muloqotning ma’nosi haqida teran falsafiy tahlil yuritiladi. Masalan, Odamning jannatdan quvilishi voqeasi nafaqat xato sifatida, balki inson tafakkuri, irodasi, bilishga intilishi timsoli sifatida talqin etiladi. Bu holatda muallif “men”i hikoya davomida o‘quvchini ruhiy o‘y va mushohadaga undaydi. Shu bilan bir qatorda voqeaga va jarayonga o‘z munosabatini ham bildirib, ularga xarakteristika beradi.

Ikkinchi faslda *“Leksik vositalardan foydalanishdagi mahorati”*ga urg‘u berildi. Jon Miltonning “Yo‘qotilgan jannat” dostoni esa ingliz adabiyotining eng yuksak badiiy namunalardan biri hisoblanadi. Unda shoirning til vositalaridan foydalanish mahorati ham janr, ham mazmun, ham poetik ifoda jihatidan alohida o‘rin tutadi. Jon Milton epik dostoniga xos ulug‘vorlikni, diniy-falsafiy mazmundagi chuqur mushohadalarni ifodalashda tilning juda keng, serma’no va badiiy kuchga ega bo‘lgan imkoniyatlaridan unumli foydalanadi. Jon Miltonning til vositalaridan foydalanishdagi asosiy xususiyatlaridan biri epik uslub va ulug‘vor leksikani yaratish uchun ko‘plab diniy-falsafiy tushunchalarga murojaat etgani, qadimgi yunon va rim mifologiyasidan kirib kelgan so‘zlardan foydalanganligi, Injil terminlarini ishlatganligi bilan izohlash mumkin. Fikrimizga misol: “Heaven’ly Muse!” so‘z birikmasidan foydalanishi natijasida asarni yunon mifologiyasiga yaqinlashtiribgina qolmay, balki ulug‘vor leksikaga yo‘l ochadi. Yoki “Holy Spirit” so‘z birikmasi orqali asarni Injil terminlari bilan bog‘lab yuboradi. Jon Milton dostonida obrazlilikka erishish maqsadida metaforalardan unumli foydalanadi. U tantanovor ruhni o‘quvchiga taqdim etish uchun mana shu usulni tanlaydi. “Yo‘qotilgan jannat” asarining birinchi kitobida Yaratganni “Almighty God” deya ataydi. Uning Yaratgan borasidagi atamalari ham Injilni yodga soladi. Adib Tangrini goh “Yaratuvchi” deb atasa, goh “Qudrat egasi”, goh “Yaratuvchi - Ota”, goh “Yorug‘lik manbayi”, goh “O‘lmas”, “Abadiy” kabi epiteta asosida e’tirof etadi. E’tiborli jihati Tangrini “Yaratuvchi - Ota” deya ta’kidlasa, Iso (a.v.)ni “yaratganning o‘g‘li” sifatida talqin etadi. Bu esa, yuqorida ta’kid etganimizdek, asarni Injilga yaqinlashtiradi hamda bu tushunchalarni to‘g‘ridan to‘g‘ri qo‘llay boshlaydi.

“Yo‘qotilgan jannat” dostonida Iblis obrazini tasvirlashdagi metaforik tushunchalarga ham duch kelamiz. Adib bu obrazni “Infernal Serpent”, “Subtle

Enemy”, “Fallen Angel”, “Fierce Avenger” singari metaforik tasvirlar orqali berishga harakat qiladi. Bu metaforik qatlam chuqur mazmunga ega bo‘lib, ijodkor bu metaforalar orqali obrazlarni bir qancha rakurslarda ko‘rsatishga muvaffaq bo‘ladi. Birgina Iblis obraziga razm tashlaydigan bo‘lsak, u goh jahannam iloni qiyofasiga ega bo‘lsa, goh ayyor dushman qiyofasi oladi. Jon Milton bu kabi metaforik tushunchalar orqali asarni yanada injilga yaqinlashtiradi. Chunki Injilda ham Iblis ilon qiyofasiga kira oladigan va ayyorlikda unga hech bir maxluqot teng kela olmaydigan tushunchalar orqali berilgan. Demak, Jon Milton Injildan uzoqlashib ketmaydi, unga yangi qiyofa baxshida etmaydi. Biroq adib bu obrazni haddan ortiq ulug‘vor va jozibali tarzda tasvir etadi.

Abdulla Oripovning “Odam va Shayton” qissasida nafaqat falsafiy g‘oyalarni ilgari suradi, balki til imkoniyatlarini mohirona qo‘llab, leksik vositalar yordamida o‘quvchini ruhiy va ma‘naviy mushohadaga chorlaydi. Abdulla Oripovning “Odam va shayton” qissasida leksik vositalar falsafiy mazmunni oshirishi bilan bir qatorda obrazlarning ruhiy holatini ifodalashi va milliy-estetik tafakkurni aks ettirishi bilan ham belgilanadi.

Ohangning o‘ynoqiligini va o‘ziga xosligini yaratish maqsadida shoir qofiyada jonli til (so‘zlashuv tilidan) foydalanadi. Bu esa ohangdorlikning yanada oshishiga xizmat qiladi. Asardagi “*sensirab/tentirab*”, “*amma-xolasi/bolasi*”, “*yo‘l oldi/yolg‘iz qoldi*”, “*na so‘lida/qo‘lida*”, “*jilpanglab/qilpanglab*”, “*olamga/bolamga*”; “*bunday hol/qoldira qol*”, “*xushlagancha/ushlagancha*”, “*to‘yog‘i/buyog‘i*”, “*baloga/Havoga*”, “*zor qilgan/xor qilgan*”, “*bo‘ktirdi/cho‘ktirdi*”, “*doviga/oviga*”, “*boqqan choq/oqqan choq*”, “*boshida/qoshida*”, “*qog‘ozi/ovozi*” fikrimizga misol bo‘la oladi. Mazkur qofiyadosh so‘zlarning asosini ravish hosil qilgan. Shoir ruhiy tasvirni berganligi bois ham aynan ravishga ko‘proq murojaat seziladi. Asarni o‘qish jarayonida ritm dinamikasi o‘zgarganligi ham kuzatiladi. Abdulla Oripov bandlarning ikkinchi va to‘rtinchi misralarini o‘zaro qofiyalaydi. Biroq Shayton va Momo Havo o‘rtasidagi dialogda, Shaytonning quvlarcha ish yuritib Momo Havoni maqtashga chog‘langanida bu ritm o‘zgaradi. Uning xushomadida qofiyadosh so‘zlarning joylashuv tartibi o‘zgaradi. Mana endi birinchi va uchinchi misralar qofiyalanib, ikkinchi va to‘rtinchi misralarda takror yuzaga keladi. Bu takror ham Momo Havo fikr-u xayolini chalg‘itish orqali bosim o‘tkazishdan, manipulyatsiyadan boshqa narsa emas.

Nazar Eshonqulning “Taqiq mevasi” romanida til xususiyatlarining o‘ziga xos tarovati kuzatiladi. Mazkur asar adibning o‘ziga xos mahorati va ijod qirralarini zamonaviy o‘zbek adabiyotida falsafiy mushohada, diniy-mifologik motivlar va zamonaviy inson ruhiyatini badiiy tahlil etishdagi o‘ziga xos uslubi bilan ajralib turishi bilan belgilash mumkin. Uning “Taqiq mevasi” romani ham ana shu tamoyillarning uyg‘un ifodasidir. Muallif badiiy til imkoniyatlarini chuqur his etgan holda, so‘zning semantik kuchidan, ramziy ma‘nosidan va fonetik ta‘siridan o‘rinli foydalanadi. Roman leksik qatlamining boyligi, undagi diniy, mifologik va falsafiy birliklarning uyg‘unligi asarning estetik qimmatini belgilaydi.

Romanning leksik qatlamlari xilma-xil bo‘lib, diniy-mifologik leksika yetakchilik qiladi. Ayniqsa, “gunoh”, “taqiq”, “meva”, “jannat”, “shayton”,

“havo”, “odam” kabi soʻzlar markaziy semantik oʻqni tashkil etadi. Ular nafaqat diniy manbalardan olingan, balki muallif tomonidan ramziy va falsafiy mazmun bilan boyitilgan. Masalan, “taqiq meva” – faqatgina jannatdagi meva emas, balki insoniyatning abadiy orzusi, bilim va ozodlik ramzi hamda muhabbat tuygʻulari sifatida talqin etiladi. Adib koʻproq muhabbat tuygʻusiga urgʻu beradi. Bu esa oʻz navbatida psixologik-falsafiy leksikaga yoʻl ochadi. Romandagi “*tashnalik*”, “*iztirob*”, “*koʻngil*”, “*xotira*”, “*ong*”, “*gunoh hissi*”, “*vahima*” kabi soʻzlar inson ruhiyati qatlamlarini ifoda etishda xizmat qiladi. Nazar Eshonqul bu soʻzlar orqali insonning ichki kurashini, ruhiy parokandaligini yoritadi. Adibning “*Taqiq mevasi*” asari metaforalarga boy boʻlgan asardir. “*Qatl kundasi*”, “*istehzoli tabassum*”, “*misikin maʼbuda*”, “*gʻam-gʻussa maʼbudasi*”, “*betiyiq xayollar*”, “*bolalik dunyo*”, “*ideal shaxs*”, “*sahna timsoli*”, “*eʼtiqod timsoli*”, “*pir timsoli*”, “*kamolot timsoli*”, “*muqaddas sahna*”, “*ojiz qismat*”, “*notavon qismat*”, “*qurbonlik qismati*”, “*telba ruhlar*”, “*yengiltak ayol*”, “*telba dunyo*”, “*suvsiz sahro*”, “*hayot manzaralari*”, “*oʻlim toʻshagi*”, “*tomoshaning xudosi*”, “*magʻrur ayol*”, “*kibrli ayol*”, “*bir quchoq boʻron*”, “*yashnoq davr*”, “*anduh xanjari*” singari metaforalar fikrimizni dalillaydi. Bu kabi metaforalar obrazlarning ruhiyatini yoritishdan tashqari, xayol va hayot chegarasini ham ifodalaydi. Shu bilan bir qatorda yozuvchi metaforalarga juda katta maʼsuliyat ham yuklaydiki, bu masʼuliyat birinchidan novella imkoniyatlarini leksik qatlamini oʻzida omuxtalagan boʻlsa, ikkinchidan, falsafiy tafakkurning qatlamlarini berishga imkoniyat yaratadi, uchinchidan esa obrazlarning nutqiy funksiyasini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Uchinchi falsda esa “*Adiblarning tildan foydalanishdagi oʻziga xos uslubi*” muammosiga oydinlik kiritildi. Jon Miltonning tildan foydalanishdagi mahorati uning asarlariga epik ulugʻvorlik, ruhiy teranlik va falsafiy ohang bagʻishlaydi. “Yoʻqotilgan jannat” nafaqat diniy epos, balki badiiy soʻzning ilohiy falsafaga singdirilgan timsoli sifatida ham qadrlanadi. J.Miltonning oʻziga xos uslubi xronotop tushunchasida ham zuhur topgan. Bu haqda adabiyotshunos Ye.N.Teterina oʻz tadqiqotida quyidagi mulohazalarini berib oʻtadi: “Miltoncha kosmos oʻz dizaynida dostonlarga xos boʻlgan koinotning tuzilmalari (jahannam, osmon, yer) uchlik tasvirini beradi. Ular orasida Adan dominant hisoblanadi. Fazoviy sheʼrning koordinatalari, qisman haqiqiy xususiyatlar bilan bogʻliq (masalan, landshaft eskizlari) epik universallarning xarakteriga ega. “Xaosni kosmizatsiya qilish” jarayonining tavsifida (Meletinskiy E. M.), dushman kuchlarning fazoviy chegaralanishi, ulardan birining aks-sadolari qadimgi afsonaviy fikrlashning fazilatlarini “egallik qonuni” (Levi Bryul L.) va boshqalar”⁵⁸ni taqsimlab chiqadi. Bu esa xronotopning oʻziga xosligini koʻrsatibgina qolmay, balki ijodkorning uslubidan ham darak beradi. Darhaqiqat, Jon Milton dostonida xronotopga alohida ahamiyat qaratadi. Shu bilan bir qatorda xronotop bilan ovoz diapozonlari, muqaddas marosimlar bogʻliq holda berib boriladiki, bu kabi holat oʻquvchini sergaklantiribgina qolmay, balki chuqur oʻy-mushohada yuritishga majbur etadi: *First Moloch, horrid king besmeared with blood// Of human*

⁵⁸ Тетерина Е.Н. Эпические традиции в «Потерянном рае» Джона Мильтона и проблема специфики жанра // Дисс. канд. фил. наук. – М., 2003. – С. 9.

*sacrifice, and parents' tears; // Though for the noise of drums and timbrels loud // Their children's cries unheard that passed through fire // To his grim idol. Him the Ammonite // Worshiped in Rabba and her watery plain, // In Argob and in Basan, to the stream // Of utmost Arnon. Nor content with such // Audacious neighbourhood, the wisest heart // Of Solomon he led by fraud to build // His temple right against the temple of God // On that opprobrious hill, and made his grove // The pleasant valley of Hinnom, Tophet thence // And black Gehenna called, the type of Hell.*⁵⁹

Ibodatxonalargacha yovuzlik bostirib kirishi, natijada muqaddas sanalgan marosimlarga putur yetishi, asosiysi, jin va shu kabi maxluqotlarning yaxshilikka, Yaratganga qarshi bosh ko'tarishi, Sulaymon yaratgan muqaddas qadamjolarining vayron etilishi, Sulaymon hokimiyatining inqirozini keltirib chiqarishi, beginohlarni qurbonlikka keltirilishi, bolalarning o'lim qichqirig'i, truba va baraban kabi cholg'u asboblarning gumburlashi – bularning barchasi yovuzlikni ko'rsatuvchi belgilarga aylanadi va detal sifatida keltiriladi. Shoir shu yo'l orqali diniy va falsafiy mazmunni uyg'unlashtiradi. Bu uyg'unlik yaxshilik va yovuzlik, nur va zulmat o'rtasidagi kurashning semantik markaziga aylanadi. Shoirning tili Injil uslubiga yaqin bo'lsa-da, u poetik tafakkur orqali uni yangi badiiy shaklga soladi. Bu esa Milton uslubini boshqa epik shoirlardan ajratadi. Ayniqsa, inson ongidagi ruhiy qorong'ulik tasviri fikrimizni yaqqol dalillaydi.

Nazar Eshonqul "Taqiq mevasi" asarida diniy-falsafiy, diniy-psixologik qatlamlarni ifodalashda leksik-semantik, sintaktik va stilistik vositalardan mohirona foydalanadi. Yozuvchi badiiy til orqali inson ruhiyati, zamon ziddiyatlari va abadiy axloqiy savollarga estetik yondashadi. Bu esa o'z navbatida diniy-falsafiy, ramziy va psixologik yo'nalishlarni uyg'unlashuviga olib kelgan. Yozuvchining "Taqiq mevasi" badiiy til jihatidan ham, mazmuniy-falsafiy qatlam jihatidan ham o'ziga xos fenomen hisoblanadi. Asar tili o'quvchini nafaqat voqealar rivoji bilan, balki so'zlarning ichki semantik kuchi, ramziy ifoda vositalari, falsafiy metaforalar orqali ruhiy mushohadaga undaydi. Shu ma'noda, yozuvchi tili oddiy hikoya tili emas, balki tafakkur tili, falsafiy nutq shakli sifatida namoyon bo'ladi. Romanning leksik qatlami diniy, falsafiy va psixologik so'z birikmalariga boy. "Gunoh", "najot", "jannat", "shayton", "daraxt", "ong", "ruh", "iztirob" kabi so'zlar asar semantikasining markazida turadi. Bu so'zlar orqali muallif insoniyat tarixidagi abadiy savol – yaxshilik va yovuzlik, imon va gumrohlik, ruh va jism o'rtasidagi kurashni ifodalaydi. Roman sintaksisi ham Nazar Eshonqul uslubining o'ziga xos Obelgilaridan biridir. Muallif uzun, mantiqan murakkab, lekin ohangdor gaplardan foydalanadi. Har bir jumla fikrning qatlamli ifodasini beradi, bunda badiiy ohang bilan falsafiy mushohada uyg'unlashadi: *"Malak mening xayolim va ko'nglimga olma gulli oppoq ko'ylak kiyib kirib kelgandi: u shu darajada nozik, shu darajada navnihol ediki, hozirgina gullagan yosh niholning gulbarglari qoplab olgan va bu dunyoga kurtaklari bilan hurkib-titrab boqib turgan novdasini eslatgan, dimog'imga gullashini har bahorda xuddi ona sutini qo'msagan go'dakday kutadigan va hamisha onamni eslatadigan hovlimizdagi olma Havoning muattar hidi kelib urilgan, o'sha lahzalar xuddi huru*

⁵⁹ John Milton «The Paradise Lost of Milton» Book I, Lines 392–405, Milton J. Paradise Lost / Ed. Printed for Henry Washbourne&CO, 25 Ivy Lane, Paternoster Row -London, 2024. – 14-15-p.

*g'ilmolpar parvona, pari bulbullar sayrab turgan ravzai firdavsga tushib qolganday, Buyuk gunoh sodir bo'lish arafasida Odam Ato bilan Momo Havoning qarshisida turgan, gunoh sargahttaligini boshlab bergan tabu olmasining bo'yiday mastu mustag'riq qilgandi – "o'ldim-kuydim" degan ishq qissalarini nazariga ilmagan menday qalandimog' yigit bu muhabbat hidi, muhabbat toti ekanini keyinchalik – ruhimni Malakning ostonasida qoldirib, bo'shab qolgan arava kabi ayriliqdan to'kilib tushay deytgan qoqshol tanamni sudrab shaharning beadoq ko'chalarida besabru poy sochilib ketgan kunlarimda angladim, ammo o'sha paytda Malakni ilk bor ko'rganda muhabbat emas, onam haqida so'raganimda momom aytib bergan qadim cho'pchak xotiramda jonlangan va bir zum Iblis yetaklab borgan olma daraxtining Momo Havoni ohangraboday o'ziga chorlagan mevasini ko'rib turgandek hapqirib-hayajonlanib ketgandim"*⁶⁰. Mazkur gap murakkab sintaktik qurilmaga ega bo'lib, unda bosh qahramonning ong ostida kechayotgan xayollari o'rin egallagan. Yozuvchi romanni novella janri asosiga yaratganligii bois novella talablarini birinchi planga chiqaradi. Ya'ni asarda keltirilgan har bir gapni murakkab qilib yaratadi va unda uyushiq bo'lak, metafora, jonlantirish kabi sintaktik birlik, bo'lak va badiiy bo'yoqlarni ketma-ketlikda keltirib, mushohadaviy ohangni keltirib chiqaradi. Bu kabi murakkab qurilmaga asoslangan gap o'quvchini chuqur mushohadaga yetaklaydi. Yozuvchi shu yo'l orqali fikr va tuyg'uning orasidagi nozik chegarani oydinlashtirib, falsafiy lirizmga yetaklaydi. Bosh qahramonning qalbidagi his-tuyg'ularini hissiy obraz darajasiga ko'taradi. Bu kabi usul Nazar Eshonqulning til xususiyati nuqtai nazaridan o'ziga xosligini belgilagan.

Abdulla Oripov o'zining "Odam va Shayton" qissasida uning o'ziga xos uslubi yaqqol ko'zga tashlanadi. Birinchidan, bu uslub badiiy ifoda vositalari bilan bog'lansa, ikkinchidan, diniy-falsafiy mazmuni ifodalashdagi leksik va stilistik imkoniyatlarini qo'llay olishi bilan belgilash mumkin. Shoir mazkur asarda roviy tilidan foydalanganligi bois inson, nafs, iymon va gunoh singari adabiy falsafiy tushunchalarni badiiy tilda o'ziga xos usulda bera oladi. Bu usul falsafiy lirika va diniy-badiiy tafakkurni yuksak bosqichga olib chiqqanligi bilan belgilanadi. "Odam va Shayton" qissasi insoniyatning ruhiy ildizlarini, nafs va iymon, nur va zulmat o'rtasidagi abadiy kurashni badiiy tilda talqin etuvchi asar bo'lib yaratilgan. Abdulla Oripov uchun til – bu nafaqat ifoda vositasi, balki ma'naviy mushohada, ruhiy iztirob tasvirining eng yuksak cho'qqisidir. Shu bois ham mazkur asar tili poetik, ramziy, falsafiy ohangga boy. Bu ohangni yuzaga keltirish uchun shoir jonlantirishdan unumli foydalanadi: *Yosh quyoshning o'tli ko'zi, yosh zaminga boqqan chog', Gullar yal-yal yashnagan payt, ya'ni peshin oqqan chog'.* (- B.34)

Mazkur parchaga nazar tashlansa, unda yosh quyoshning o'tli ko'zi bilan quyoshga jon baxshida etadi. Faqat bugina emas, u mana shu o'tli ko'zlari bilan zaminga boqadi. Bu jonlantirishda insonga xos bo'lgan xususiyat to'g'ridan-to'g'ri tabiatning bir bo'lagi bo'lmish quyoshga ko'chadi. Yosh quyosh deb atalishining asosiy sababi esa, endigina manzil topgan Odan Ato, Momo Havo va Shayton obrazlari bilan chambarchas bog'liq. Ijodkor yangi zaminda, hamma narsa yangi

⁶⁰ Эшонқул Н. Сайланма II. – Тошкент: Akademnashr, 2022. – Б. 301.

bo'lishi lozimdek taassurot uyg'otadi. Yana shuni ta'kidlab o'tishimiz mumkinki, quyoshning o'tli nigohi aynan peshin vaqti bilan belgilanadi. Shu bois ham mana shu vaqt tushunchasiga urg'u beradi. O'tli nigoh nur tushunchasini ham beradiki, undagi ramziy tushuncha ilohiy haqiqat va poklikni ham anglatadi.

J.Milton, N.Eshonqul hamda A.Oripovlar tilni oddiy tasvir vositasi sifatida emas, balki tafakkur, ruhiy holat va falsafiy idrokning ifoda shakli sifatida qo'llaydi. Ularning asarlari turli davr madaniy kontestida yaratilgan bo'lsa-da, badiiy so'z orqali o'z asarlarida davrlar osha anglashilinayotgan bashariyatning ibtidosi bo'lmish gunoh tushunchasining boqiy iztirobini ko'rsatishni maqsad qiladi. Bu izlanishlar asarlarni diniy-falsafiy fikrning badiiy shakli, uslubi esa inson ruhining mushohadaviy manzarasiga aylantiradi.

XULOSA

“Yo'qotilgan jannat” motivi asosan diniy manbalar – yahudiylikdagi “Tavrot”, nasroniylikdagi “Injil” va islomdagi “Qur'oni Karim”da mavjud bo'lgan Odam Ato va Momo Havo qissasiga tayangan holda shakllangan. Ushbu motiv insoniyatning ilk gunohi, Tangriga bo'lgan itoatsizlik, jazolanish va dunyoviy hayotga quvilish jarayonlarini tasvirlash orqali ezgulik va yovuzlik, iroda va taqdir, gunoh va najot kabi muhim falsafiy tushunchalarni ilgari suradi. Mazkur motiv davrlar osha o'z mazmun-mohiyatini o'zgartira boshladi. Aynan mazkur tadqiqotda bu motivning yozma adabiyotga kuchgan jihatlari tahlil qilinib, quyidagicha xulosalandi:

1. “Yo'qotilgan jannat” motivi bashariyatning o'q ildizi – gunoh va najot tushunchalarini o'zida ifoda etib, erkin iroda, ma'naviy tanazzul va najot yo'lini izlash bilan bog'liq. Motiv badiiy asarda hayotiy sinovlar, ruhiy iztiroblar va komillik sari intilishning ramzi sifatida talqin etiladi. Bu esa uni adabiyotda chuqur falsafiy va universal mavzuga aylantirgan. “Yo'qotilgan jannat” insoniyatni orzu-umidlarga yetaklovchi xronotopdir. Biroq bu tushunchaga davrlar o'tishi bilan qarashlar o'zgaradi. Natijada badiiy asarlarda “Yo'qotilgan jannat” motivi bir qancha rakurslarda o'z ifodasini topdi. Mifologiyada Jannat – Olimp tog'i bilan belgilanib, unda ma'budlar boqiy hayot kechirishadi. Ion va Latona hayoti bilan bog'liq rivoyatlarda jannat xronotopi o'zgaradi. Ion uchun Jannat Misr sifatida talqin etilsa, Latona uchun Delos oroli Jannat vazifasini o'taydi. Bundan tashqari “Yo'qotilgan jannat” tushunchasi jinoyat va jazo bilan ham belgilanadi. Bu kabi qarashlarni Prometey va Dionis obrazlari orqali ayonlashadi.

2. Motivning Sharq adabiyotidagi aksini Imom al-G'azzoliyning “Ihyo ul-ilm ad-din”, Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma”, Ahmad Yassaviyning “Devoni Hikmat”, Nosiriddin Rabg'uziyning “Qissasi Rabg'uziy”, “Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asarlarida o'z ifodasini topgan. Bu asarlarda diniy motiv asosiy tushuncha sifatida talqin etiladi. Zamonaviy Sharq adabiyotida “Yo'qotilgan jannat” motivi bir qancha janrlarda o'z ifodasini topgan. Abdurauf Fitrat “Shaytonning tangriga isyoni”ni dramatik yo'lda yaratib, shaytonning kibriga asosiy e'tiborini qaratgan bo'lsa, Abdulla Oripov “Odam va shayton qissasi”ni she'riy yo'lda yaratadi. Shoir ko'proq shayton obrazidagi ironiya,

kinoya, pichingga urg‘u beradi hamda Fariduddin Attorga izdoshlik qiladi. Sezai Karakoch esse janrida yaratib, insoniyatni falsafiy mushohadaga chorlaydi. S.Ahmadning “Alla” hikoyasida bu motiv oila tushunchasida o‘z ifodasini topadi. Abduvali Qutbiddinda “Yo‘qotilgan jannat”ni ko‘ngil timsolida talqin etadi.

3. Motivning G‘arb adabiyotidagi aksini esa Dante Allegerining “Ilohiy komediya”, Jon Miltonning “Yo‘qotilgan jannat”, Uilyam Beykning “Jannat va do‘zaxning nikohlanishi”, M.Bulgakovning “Usta va Margarita”, M.Lermontovning “Demon” (Iblis) kabi asarlar misolida kuzatish mumkin. Motivning yangicha talqinini Rene Dekart, Iogann Volfgang fon Gyote, Fransua Rebelais, Boris Posternak, M.Bulgakov, asarlari ayonlashadi. Zamonaviy G‘arb adabiyotida ham bu motiv yetakchi motivlar sifatida talqin etilgan. Ushbu motiv, ayniqsa, diniy, ekzistensial va psixologik yo‘nalishdagi asarlarda tez-tez uchraydi. Bu kabi xususiyatlarni ingliz adibi C.S.Levisning “The Space Trilogy” asarida fantastik xususiyat kasb etadi, J.D.Salingerning “The Catcher in the Rye” asarida esa beg‘ubor bolalikni tiklashga bo‘lgan harakati bo‘lib o‘z ifodasini topgan. George Orwellning “1984” asarida mazkur motiv totalitar tuzum tasviriga egadir. Zamonaviy adabiyotda “Yo‘qotilgan jannat” motivi aks(teskari) holatda ham tasvir etila boshlandi. Bu aks motivga qarama-qarshi g‘oya sifatida olg‘a surildi. Ray Bradburyning “Fahrenheit 451”i, Philip Pullmanning “His Dark Materials”i, Margaret Atwoodning “The Handmaid’s Tale”i, Samuel Beckettning “Waiting for Godot”i, Thomas Pynchonning “Gravity’s Rainbow”i shunday asarlar sirasidandir.

4. Ingliz uyg‘onish davri adabiyotining yirik vakillaridan biri Jon Milton “Yo‘qotilgan jannat” dostoni bilan jahon shohsupasiga ko‘tarildi. Doston teologik asosga ega bo‘lib, insoniyatning gunoh, najot va umid borasidagi qarashlarining o‘zida ifoda etdi. “Yo‘qotilgan jannat”ni qo‘shiq janri asosida yaratilgan bo‘lsa-da, biroq bu asar epik doston sifatida yuzaga keladi. Dostonda ana‘naviy syujet unsurlari o‘z ifodasini topgan. Syujetning ekspozitsiya qismini dostonning birinchi va ikkinchi kitoblarida o‘rin egallagan bo‘lib, asar tuguni uchinchi va to‘rtinchi kitoblarida ayonlashadi. Asarning konflikti esa beshinchi va oltinchi kitobiga to‘g‘ri keladi. Kulminatsiya esa yettinchi va to‘qqizinchi qismlarda o‘z ifodasini topadi. Asarning yechimi sifatida o‘ninchi va o‘n ikkinchi kitoblar(qism)ni ta’kidlash mumkin. Bu kabi syujet elementlarining berilishi doston janrining janriy xususiyatlarini keltirib chiqargan.

5. Jon Milton mazkur dostonida qofiyasiz she‘r (blank verse) shaklini tanlaydi. Ammo besh urg‘uli bo‘g‘indan iborat ohangdor metrikada (iambic pentametr) yozadi. Bu usul esa o‘z navbatida unga monumental, falsafiy va dramatik ohang yaratish imkonini beradi. Asar nasr va nazm uyg‘unligida yaratilgan. Bu holat esa G‘arb adabiyotida o‘ziga xos hodisa edi. Har bir kitob(qism)da asarning nasriy bayoni berib borilishi bizga Sharq adabiyoti an‘analarini yodga soladi. Sharq xalq og‘zaki ijodi hamda mumtoz adabiyotida dostonlarning nasriy bayoni berilgan bo‘lib, bu kabi yondashish ijodkorning Sharq adabiyotini yaxshi bilishidan darak beradi. Shu bilan bir qatorda mumtoz dostonchilikda hamd va na‘t tushunchalari joy olgan. Xuddi shunday holat “Yo‘qotilgan jannat” asarining boshlanish qismida uchraydi. Biroq Jon Milton Muzalarga murojaat etishi Sharq dostonchiligidan farqlanuvchi xususiyat sifatida

e'tirof etish mumkin.

6. Jon Milton yaratgan obrazlarining ichki dunyosi, ruhiy iztiroblari, tanlov hamda fojialarning ruhiyatiga ta'siri bilan ahamiyatli. Dostonning asosiy obrazlari sifatida Shayton (Iblis), Odam Ato, Momo Havoni ta'kidlashimiz mumkin. Shoir obraz yaratishda murakkab psixologik portretlarga urg'u berdi. Natijada uning qahramonlari – bir yoqlama emas, balki ichki ziddiyat, qarama-qarshilik, iztirob bilan yashovchi mavjudotlar sifatida asarda shakllandi. J.Milton obraz yaratishda murakkab psixologik holatlarni berishga muvaffaq bo'lgan. Bu holatlarni berishda simbolik va diniy timsollardan foydalanadi. Natijada uning asari estetik go'zallik kasb etib, dramatik kuchga ega bo'lgan. Shu bilan bir qatorda she'riy nutqning zarrin imkoniyatlarini epik dostonga muvaffaqiyatli uyg'unlashtiradi.

7. Doston xronologik tartibga ega bo'lmay, mifologik tushunchalar bilan bog'liq holda bayon etilgan. Birinchi kitob do'zaxdan boshlanib, keyin Jannat, gunoh va insoniyatning quvilishi mazmunini tashkil etgan. Muallif dramaturgik ketma-ketlikdan voz kechgan bo'lib, bu holat insoniyat tarixining ruhiy manzarasini yaratishga o'ziga xos uslubni keltirib chiqargan. Asar mazmuni Iblisning qulashidan tortib insonning najotga qadar bo'lgan ruhiy yo'lini qamrab olgan. Dostonda mazmun va shakl uyg'unlashgan. Asar epik poema shakliga ega bo'lib, mazmun jihatdan insoniyat taqdirining ilohiy darajasidagi talqini ko'rsatishga erishgan. Shoirning mazkur asari antik epos kompozitsiyasini tashkil etib, diniy e'tiqod va tarixiy fojining timsoli sifatida gavdalangan. Undagi simbol va tasvirlar ruhiy-ma'naviy tushunchalarning obrazli ifodasidir.

8. Nazar Eshonqulning "Taqiq mevasi" romani diniy-falsafiy mazmun, mifologik arxetiplar va zamonaviy ijtimoiy muammolarni uyg'unlashtirgan holda insoniyatning abadiy axloqiy savollariga javob izlaydi. Asarda Havo obrazi orqali ayolning tarixiy-madaniy qiyofasi va ruhiy olami chuqur tahlil qilinadi, olma ramzi orqali esa nafs, iroda va erkinlik sinovlari badiiy talqinda yoritiladi. Roman zamonaviy o'zbek adabiyotida ma'naviy izlanish, qadriyatlar tanqidi va insonning o'z-o'zini anglash jarayonini falsafiy-badiiy yondashuvda ifodalagan yuksak asar sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

9. "Taqiq mevasi" romani zamonaviy o'zbek adabiyotida postmodernist uslub, diniy-mifologik qatlam va sahna metaforasi uyg'unlashgan holda inson ruhiyati va axloqiy tanlovlarini chuqur tahlil qilgan asardir. Roman ikki novelladan iborat bo'lib, uni "Havo" va "Malak" deya nomlagan.

10. Muallif "Havo" novellasida uch markaziy obraz – roviy (Adam), Havo va Ma'bud orqali isyon, muhabbat, gunoh, vijdon va qismat kabi falsafiy tushunchalarni badiiy ifodalaydi. Ramzlar va fragmentar vaqt-makon tuzilishi asarga sirli va dramatik ohang bag'ishlaydi. Romanda voqealar zanjiridan ko'ra inson ruhiyatining nozik qatlamlari, ichki kechinmalari va ongdagi ziddiyatlari markazga chiqariladi.

11. Asarda ruhiy holatlarni ifodalashda mimik va pantomimik harakatlar, ovoz diapozoni, monolog, portret va peyzaj, tush, holat va harakat kabi psixologik vositalardan mahorat bilan foydalanilgan. Ong oqimi texnikasi orqali qahramonlarning ichki kurashlari, xotiralari, orzu va qo'rquvlari bevosita yoritiladi. Obrazlar ko'pincha ramziy xarakter kasb etib, Havo – ehtiros va isyon,

Ma'bud – kuch va yo'ldan ozdiruvchi timsol, roviy esa ular orasidagi ruhiy tortishuv markazida gavdalanadi.

12. Muallif milliy qadriyatlar, xalqona timsollar va tabiat manzaralarini ruhiy kechinmalar bilan uyg'unlashtirib, ularni o'zbekona kontekstda talqin etadi. Shuningdek, teatr sahnasi, tarixiy-mifologik ishoratlar, predmet va detal tasvirlari orqali obrazlarning ichki dramatzimini chuqurlashtiradi. Romanda falsafiy va ekzistensial savollar – isyon, gunoh va najot masalalari – o'ziga xos badiiy-estetik yondashuv bilan ochilgan. Natijada "Taqiq mevasi" insonning ichki olami, ilohiy va shaytoniy kuchlar o'rtasidagi ziddiyatni badiiy-psixologik tasvirlashning yuksak namunasi sifatida namoyon bo'ladi.

13. "Odam va shayton" she'riy qissa Abdulla Oripovning ma'naviy-falsafiy tafakkurini namoyon etuvchi kuchli badiiy asardir. U insonning ichki dunyosini yoritib, erkin irodani, mas'uliyat va tavbani muhim axloqiy markazlarga aylantiradi. Abdulla Oripovning "Odam va shayton" qissasi she'riy shaklda yozilgan bo'lib, u voqeabop hikoya va she'riy san'atning qo'shilishi natijasida yuzaga kelgan o'ziga xos badiiy janrda yaratilganligi bilan kishini maftun etadi. Asar voqealari progressiv o'zgarish diagrammasi orqali berib boriladi. Bu diagrammani tinch va oddiy hayot, Shayton va uning bolasi nogoh kelib, Momo Havoni chalg'itishi natijasida shubhali ruhiy ahvolga tushishi, Odam Atoning qat'iy faol qaror qabul qilishini anglash mumkin. Asosiysi, A. Oripov bu qissada ruhiy holatlarni harakat, so'z, tasvir va dramatik aktlar orqali qat'iy va poetik tarzda ochadi.

14. Jon Milton, Abdulla Oripov va Nazar Eshonqul ijodida tildan yuksak mahorat darajasida foydalangan ijodkorlardir. Natijada asarlarda til oddiy tasvir vositasi emas, balki falsafiy tafakkur va ruhiy kechinmalarning ifodasi sifatida namoyon bo'lgan. Jon Miltonning "Yo'qotilgan jannat" dostoni tili va o'ziga xos uslubida epik ulug'vorlik, injilga xos ohang va mifologik qatlamlar uyg'unligi bilan ajralib turadi. U arxaik so'zlar, inversiyalar va diniy leksika orqali universal ruhiy-falsafiy manzarani yaratadi.

15. Nazar Eshonqulning "Taqiq mevasi" romanidagi o'ziga xos uslub esa tilning semantik va ramziy qatlamlari inson ruhiyatini ochish vositasiga aylanadi. Abdulla Oripovning "Odam va Shayton" qissasidagi o'ziga xos uslub poetik tafakkurga tayangan falsafiy ohang bilan ajraladi. Oddiy so'zlashuv nutqi orqali dramatik ruh hamda hikmat darajasiga ko'tarilgan mushohadani taqdim etadi. J.Milton, N.Eshonqul hamda A.Oripov asarlarida nutq shakllari va ovozlari tizimi muhim badiiy vazifa bajaradi: Miltonda badiiy olamidagi muallif "men"i va personajlar nutqi dramatik kuchga ega bo'lsa, Oripovda muallif, roviy va personaj nutqlari uyg'unligi falsafiy sintezni ta'minlaydi, Eshonqulda esa roviy nutqi butun asarning ruhiy markaziga aylanadi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02
ПРИ САМАРКАНДСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

СИРОЖИДДИНОВА ШАХРИБОНУ СИРОЖИДДИНОВНА

**МОТИВ «ПОТЕРЯННОГО РАЯ» И ЕГО ПОЭТИКА
(на примере произведений Джона Мильтона «Потерянный рай»,
Абдуллы Арипова «Адам и шайтан» и Назара Эшонкула
«Запретный плод»)**

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и
переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОЛОГИЧЕСКИХ НАУК (DSc)**

Тема докторской диссертации (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2025.2.DSc/Fil1025.

Работа выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков. Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета www.samdchti.uz, а также на Информационно-образовательном портале «ZiyoNET» www.ziyo.net.uz.

Научный консультант:

Рахимов Ганишер Худайкулович
доктор филологических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Мусурмонов Эркин Раббимович
доктор филологических наук (DSc), профессор

Пардаева Зулфия Жураевна
доктор филологических наук (DSc), профессор

Давронова Махфуза Исроиловна
доктор филологических наук (DSc), профессор

Ведущая организация:

Каршинский государственный университет

Защита диссертации состоится «16» мая 2026 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 при Самаркандском государственном институте иностранных языков (Адрес: 140117, г. Самарканд, улица Гагарина, 43. Тел: (99866) 233-78-43; факс: (99866) 210-00-18; e-mail: info@samdchti.uz.)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (зарегистрирована за номер 23048). Адрес: 140117, г. Самарканд, улица Гагарина, 43. Тел: (99866) 233-78-43.

Автореферат диссертации разослан «30» апреля 2026 г.
(протокол реестра № 29 от «30» апреля 2026 г.).



Н.З. Насруллаева
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

У.К. Кулдошов
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент

Д.А. Киселёв
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировой литературе проблемы сотворения человечества, а также связанные с ним религиозные, социальные, исторические и художественные интерпретации признаются одними из наиболее значимых и интересных идейно-философских направлений. Концепт «потерянного рая», связанный с происхождением человека, со временем превратился в один из ключевых смыслообразующих стержней литературы. Произведения, основанные на мотиве изгнания из рая, приобрели первостепенное значение как в западной, так и в восточной литературе и нашли отражение более чем в сотне художественных текстов. В подобных произведениях, обладающих готовыми и «кочующими» сюжетами, мировоззрение автора, его индивидуальный художественный метод, авторская позиция в интерпретации мотива и в раскрытии основной идеи играют решающую роль в понимании поэтики произведения и творческой личности писателя.

В мировой литературе мотив «потерянного рая» является одним из древнейших, наиболее масштабных и философски насыщенных мотивов. Он охватывает не только религиозно-философский контекст, но и фундаментальные вопросы человеческого бытия: добро и зло, свободу воли и предопределение, грех и спасение, совесть и страсть. Произведения, основанные на данном мотиве, во все эпохи служили важным художественным инструментом осмысления духовного и нравственного состояния человечества. В связи с этим их сравнительно-типологическое исследование, а также сопоставительный анализ поэтических интерпретаций авторов требуют глубокого философского и художественного осмысления таких ключевых понятий, как божественная воля, человеческая свобода и испытание веры в восточной и западной традициях. Данная проблематика отличается богатством религиозных, философских и художественных смыслов, что делает её актуальной для изучения вечных вопросов человеческого сознания, выявления межлитературных связей и взаимодействий, а также для более глубокого понимания духовных переживаний современного человека.

В условиях проводимых в нашей стране реформ, направленных на духовное и нравственное воспитание молодежи, произведения Дж. Мильтона «Потерянный рай», повесть Абдуллы Арипова «Адам и шайтан» и роман Назара Эшонкула «Запретный плод» выступают как важное средство нравственного самопознания, духовного испытания и внутреннего самоанализа личности. Недаром подчеркивается, что изучение и популяризация узбекской классической и современной литературы в международном контексте, а также ее анализ в тесной связи с ключевыми процессами мирового литературного пространства имеют большое научное и практическое значение. Ибо «Изучение и продвижение узбекской классической и современной литературы на международном уровне, анализ этого многогранного вопроса в неразрывной связи с важнейшими процессами, происходящими сегодня в мировом литературном пространстве,

выработка необходимых научно-практических выводов и определение наших будущих задач, я думаю, имеет большое значение».⁶¹ Несмотря на наличие отдельных теологических и философских исследований по поэме Дж.Мильтона «Потерянный рай» в мировой науке, данное произведение до настоящего времени не рассматривалось в узбекском литературоведении в фундаментальном сравнительном аспекте с повестью А.Арипова «Адам и шайтан» и романом Н.Эшонкула «Запретный плод» с точки зрения жанра, образной системы, тематики, идеи, композиции и стиля. В частности, в современном узбекском литературоведении вопросы мотивологии и поэтики сюжетного выражения остаются одними из актуальных проблем.

Настоящее исследование соотносится с задачами, определенными в указах и постановлениях Президента Республики Узбекистан и правительства, направленных на развитие науки, высшего образования, культуры чтения и международного литературного сотрудничества. Постановление Президента Республики Узбекистан от 17 февраля 2017 года № ПК-2789 «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности Академии наук, организации, управления и финансирования научно-исследовательских работ», от 20 апреля 2017 года № ПК-2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования», от 13 сентября 2017 года № ПК-3271 «О комплексной программе мер по развитию системы издания и распространения книжной продукции, повышению и пропаганде культуры чтения книг и книгоиздания», Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 16 февраля 2018 года № 124-Ф «О проведении международной конференции на тему «Актуальные вопросы изучения и пропаганды узбекской классической и современной литературы в международном масштабе», Указы Президента от 8 октября 2019 года № УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», от 11 сентября 2023 года № УП-158 «О стратегии «Узбекистан – 2030», а также других нормативно-правовых актов, относящихся к данной деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением I: «Формирование и реализация системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом и духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

Обзор международных научных исследований по теме диссертации⁶²

В мировом литературоведении поэтика мотива «Потерянного рая» во все

⁶¹ Mirziyoyev Sh. Adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi. O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari mavzusidagi xalqaro konferensiya to'plamidan. – Toshkent, 2018. 7-avgust.

⁶² Dissertatsiya mavzusi bo'yicha quyidagi: www.academia.edu, www.researchgate.net, www.google.scholar.com, cheloveknauka.com, dslib.net, www.lang.ox.ac.uk, www.cam.ac.uk, www.nyu.edu, www.ling.upenn.edu, www.linguistics.ucla.edu, www.newcastle.edu.au, www.navoiy-uni.uz, www.uni.leipzig.de, www.helsinki.fi, www.english.bnu.edu.cn, www.linguanet.ru, www.sgu.ru, www.pgu.ru, www.ssau.ru, www.vsu.ru, www.pgu.ru, www.tsutmb.ru, www.bsu.edu.az, www.nuu.uz, www.tsuull.uz, www.tuit.uz, www.buxdu.uz, www.adu.uz, www.fdu.uz. va boshqa manbalar asosida amalga oshirildi.

времена находилась в центре внимания ученых. В частности, специальные исследования проводились в Католическом университете (Америка), Кембриджском университете (Англия), Оксфордском университете (Англия), Пенсильванском университете (Филадельфия), Иллинойском университете (Чикаго), Гарвардском университете (Америка), Корнеллском университете (Нью-Йорк), Оклендском университете (Новая Зеландия), Аризонском университете (Аризона), Университете Аль-Кудс (Израиль), Огайском университете (Америка), Сиракузском университете (Америка), Санкт-Петербургском университете, Московском государственном университете, Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова.

В мировом литературоведении вопрос теологических и религиозно-философских подходов как уникального феномена в литературе, в частности, концепции греха и спасения, диалектики между свободой воли и божественной волей, превращения библейской истории сотворения в искусство, проблемы теодицеи (оправдания справедливости Бога) изучался в Католическом университете (Америка), Кембриджском университете (Англия), Оксфордском университете (Англия), Пенсильванском университете (Филадельфия). Композиционные особенности поэмы, гармония эпических и драматических черт в сюжете, особенности языка, метафоры и стилистики исследовались в Иллинойском университете (Чикаго), Гарвардском университете (Америка), Корнеллском университете (Нью-Йорк), Оклендском университете (Новая Зеландия), Аризонском университете (Аризона). Психологические и экзистенциальные подходы к поэме изучались в Огайском университете (Америка) и Сиракузском университете (Америка). Мифология в прозе исследовалась в Самаркандском государственном университете имени Шарофа Рашидова (Узбекистан).

